

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 106 (1705), 2026-yil 26-may, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



ILM-FAN VA ILMIY KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI ZAMONAVIY TALABLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-may kuni ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ilm-fanni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada ilmiy faollik, xalqaro ilmiy nashrlardagi maqolalar soni hamda yuqori reytingga ega jurnallarda chop etilayotgan tadqiqotlar ulushi izchil o‘shib bormoqda.

Qolaversa, ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirish, tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini kuchaytirish, akademik halollik tamoyillarini mustahkamlash va sohadagi boshqaruv tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu munosabat bilan taqdimotda yuqori salohiyatli ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Mamlakatimizning uzoq muddatli ilmiy-texnologik rivojlanishi uchun ustuvor hisoblangan sun‘iy intellekt, qayta tiklanuvchi energiya, oziq-ovqat xavfsizligi, tibbiyot, suv resurslari, yangi materiallar hamda seysmologiya kabi sohalar bo‘yicha ilmiy kadrlar

tayyorlashda izlanuvchilarni qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish taklif qilindi.

Bunda ustuvor yo‘nalishlardagi doktorantlar stipendiyasini 1,7 barabarga oshirish hamda ilmiy tadqiqotlarda zarur bo‘lgan asbob-uskuna va reagentlar xaridi uchun har yili qo‘shimcha mablag‘ ajratib borish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, ilmiy rahbarlar mas‘uliyati va ularni rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish taklif qilindi. Endilikda muvaffaqiyatli himoya qilingan dissertatsiyalar bo‘yicha ilmiy rahbarlarning xalqaro ilmiy faollik ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda natijaga yo‘naltirilgan rag‘batlantirish tizimini joriy qilish ko‘zda tutilmoqda.

Yana bir muhim yo‘nalishlardan biri — Oliy attestatsiya komissiyasi faoliyatini tubdan takomillashtirish bo‘yicha yangi yondashuvlar taklif etildi.

Bunda Oliy attestatsiya komissiyasi faoliyatini Fanlar akademiyasi tizimida tashkil qilish, ilmiy kengashlar mas‘uliyatini oshirish hamda ular faoliyatini reyting asosida baholash nazarda tutilmoqda.

► Davomi 2-beta

SUV RESURSLARIDAN O‘QILONA FOYDALANISH VA SUV TEJAMKORLIGI MUHIM YO‘NALISHLARDAN BIRI

Prezident Shavkat Mirziyoyev suv fondi yerlari hamda sel suvlaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Mamlakatimizda suv resurslaridan oqilona foydalanish, irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish va suv tejamkorligini ta‘minlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar o‘z samarasini bermoqda.

Xususan, yurtimizdagi 150 ming kilometr daryo va kanal o‘zlarini betonlash ishlarining boshlangani natijasida yiliga 1,3 milliard kub metr suv tejalamoqda. Bu Navoiy viloyatining bir yillik suv iste‘moliga teng. Shu kunga qadar 2 ming kilometr magistral kanal betonlashtirildi, 721 kilometr kanal, 525 kilometr lotok va yopiq tarmoqlar qurildi. Ushbu maqsadlarga 3 trillion so‘m ajratildi. Natijada 858 ming gektarda suv ta‘minoti yaxshilanib, 51 ming gektar yer qayta foydalanishga kiritildi.

Yig‘ilishda suv infratuzilmasini nafaqat texnik obyekt, balki iqtisodiy aktiv sifatida ko‘rish zarurligi ta‘kidlandi. Bugun dunyoda daryo, kanal, suv omborlari va ko‘llar bo‘yida turizm, dam olish, xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik hududlarini tashkil etish katta iqtisodiy yo‘nalishga aylangan.

Bunday loyihalar ko‘chmas mulk va yer uchastkalari qiymatini oshirish, tuman va shaharlar iqtisodiyotini jonlantirish, ichki turizm va xizmatlar sohasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda

ekologik barqarorlikni yaxshilashga xizmat qiladi.

Jahon tajribasida suv infratuzilmasi atrofidagi turizm loyihalariga kiritilgan 1 dollar sarmoyaning iqtisodiy qaytishi 3-10 dollar atrofida baholanadi.

Shu bois, mutasaddilar va hokimlar suv infratuzilmasini iqtisodiy samara beradigan loyihalarga aylantirish ustida tizimli ishlashi zarurligi qayd etildi.

Buning uchun qator yangi imkoniyatlar yaratiladi. Jumladan, qirg‘oqlar yuvilishi va suv bosishiga sabab bo‘layotgan qum-shag‘alni qazib olishga ruxsat beriladi. Suv va sel-suv omborlari, kanal, kollektor, tabiiy ko‘l va gidrotexnika inshootlarini tuproqdan tozalash ishlariga tadbirkorlar tendersiz jalb qilinadi. Suv va sel-suv omborlarida suvdan bo‘shagan yerlar ekin ekish uchun auktsion orqali ijaraga beriladi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda mazkur imkoniyatlardan yetarlicha foydalanilmayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Suv fondiga tegishli uchastkalarda tadbirkorlik, turistik va ko‘ngilochar obyektlar qurish imkoniyati bo‘lgan 100 ming gektar yer maydoni aniqlangan. Ushbu yerlarda 100 ming aholing bandlegini ta‘minlab, yiliga 220 milliard so‘m qo‘shimcha daromad manbaini yaratish mumkin.

► Davomi 2-beta

KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH KENGAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish hamda moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, ular uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish Yangi O‘zbekiston islohotlarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda bu borada qator dasturlar amalga oshirilib, tadbirkorlarga kredit, kompensatsiya, kafillik va boshqa moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytirildi. Shu bilan birga, kichik va o‘rta biznesning moliyaviy xizmatlardan foydalanishida hali ham ayrim to‘siqlar saqlanib qolayotgani qayd etildi.

Bugungi kunda kichik va o‘rta biznesga ajratilgan kreditlar portfeli 218 trillion so‘mni tashkil etmoqda. Bu yalpi ichki mahsulotga nisbatan 12 foizga teng. Shu bilan birga, onlayn tarzda ajratilayotgan ta‘minotsiz mikro kreditlar ulushi kam. Ta‘minotsiz onlayn mikro kredit ajratish jarayoni o‘rtacha 7 kungacha vaqt olmoqda. Tadbirkor kredit olish uchun bir nechta bank takliflarini bir joyda ko‘rish, solishtirish va o‘ziga maqbul shartlarni tanlash imkoniyatiga ega emas.

Shu munosabat bilan taqdimotda raqamli moliyaviy platformani ishga tushirish taklif qilindi. U orqali tadbirkor kredit olish uchun ariza beradi, bir nechta banklardan tijorat takliflarini oladi, ularni taqqoslab, o‘ziga qulayini tanlaydi.

Platforma “Elektron hukumat” tizimining raqamli ma‘lumotlar bazalari bilan integratsiya qilinadi. Kichik va o‘rta biznes subyektlariga oid ma‘lumotlar avtomatik ravishda olinib, banklarga taqdim etiladi. Bu kredit berish jarayonida hujjat yig‘ilish, ortiqcha vaqt sarflash va inson omilini kamaytirishga xizmat qiladi.

2026-yil 1-dekabrda boshlab platforma doirasida sun‘iy intellekt texnologiyalari elementlaridan foydalanish holda muqobil skoring modeli joriy etiladi.

An‘anaviy skoring asosan kredit tarixiga taysansa, muqobil skoring biznes faolligi, kommunal to‘lovlar,

aylanmalar, soliq va boshqa raqamli ma‘lumotlarni ham hisobga oladi. Bu kredit tarixi mavjud bo‘lmagan tadbirkorlarni ham baholash, ularga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga yo‘l ochadi.

Shuningdek, kelgusida sun‘iy intellekt asosida tadbirkorning kredit tarixini yaxshilash, xatarlarni baholash va biznesni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Tijorat banklari tomonidan “AI maslahatchisi” dasturini ishga tushirish ham nazarda tutilmoqda. Mazkur dastur mahallalar ixtisoslashuvi va o‘shish nuqtalarini hisobga olgan holda biznes g‘oyalarni ishlab chiqish, ularni moliyalashtirish imkoniyatlarini aniqlashga ko‘maklashadi.

Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash dasturi doirasida ham qo‘shimcha yengilliklar belgilanmoqda. Avval dastur doirasida mikro kreditdan foydalangan va ijobiy kredit tarixiga ega tadbirkorlar uchun mikro kreditning garovsiz qismi 100 million so‘mdan 200 million so‘mgacha oshiriladi.

Qolaversa, kredit yoki lizing miqdoridan qat‘i nazar, uning 5 milliard so‘mgacha bo‘lgan qismi uchun foiz xarajatlari kompensatsiya qilinadi.

Har yili o‘z faoliyatini kengaytirgan va yuqori natija ko‘rsatgan 100 ta tadbirkorlik subyektiga raqamlashtirish, xalqaro standartlar va “yashil” texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq xarajatlar uchun 300 million so‘mgacha grant ajratish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan takliflarni ma‘qullab, kredit tarixiga ega bo‘lmagan kichik va o‘rta biznes subyektlariga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, platforma xavfsizligi va ma‘lumotlarning himoyalanganligini ta‘minlash yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

O‘ZA

YANGI UYG‘ONISH FASLI HAYRATLARI

“Yurt qayg‘usida 365 kun” kitobini o‘qib...

Farovonlik xaritasi


Uchinchi ming yillikda yashamoqdamiz. Umrimizning muayyan qismi ikkinchi ming yillikda kechganini eslaganda esa, yuzimizda yoqimli hayrat paydo bo‘ladi. Axir bir emas, insoniyat tarixining ikkita ming yilligida yashash hammaga ham nasib qilavermaydi-da. Shunday ekan, “O‘tgan ming yillikda kim edigu bugun kim bo‘ldik? Dunyoqarashimiz, yashash tarzimizda qanday o‘zgarishlar yuz berdi? Farzandlarimiz to‘g‘ri voyaga yetmoqdami, ulardan ko‘nglimiz to‘qmi?” kabi savollarga duch kelishimiz tabiiy.

Buning ajablanadigan joyi yo‘q. Chunki ko‘z yumib ochguncha yangi asrning dastlabki choragi ham ortda qoldi. Yillar shiddati tezlashganday go‘yo. Aziziddin Nasafiy hazratlari uqtirganidek, dunyoning o‘zi tinimsiz harakatda va aylanishdadir. U to‘lqin yangilig‘ goh avjlanib, goh sokin tortib, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib turibdi. Voqea-hodisalar, burilish va yangilanishlar janjiri bir-biriga ulanib borayotir. Tun qorong‘iligi tonggi shafaqqa o‘rin berishda, nogahoniy dovuldan so‘ng esa mayin shabada esishda davom

etmoqda. Bu mangu tartibotga hech narsa ta‘sir o‘tkaza olmaydi.

Inson mana shu ilohiy taqdir ichida yashaydi. Har bahorni, har yorug‘ kunni, har yangi faslni umid bilan kutib oladi. Duoga qo‘l ochib, Yaratgandan el-yurtga tinchlik-xotirjamlik, bolalariga rizq-nasiba so‘raydi, ekin dalasiga urug‘ sochadi, yerga nihol qadaydi.

O‘tgan ikki ming yillikning o‘z solnomasi bor. Ikki buyuk uyg‘onish, ikki mash‘um qirg‘inbarot aynan shu davrda yuz berdi. Mirzo Ulug‘bekning o‘tkir nigohi olib



yulduzlargacha yetib bordi, Inson Oyga qo‘ndi, Marsga o‘ziyurar mashinalar yubordi. Kitob ixtiro qilindi. Shu bilan birga, yevropalik salibchilarning qonli yurishlarida musulmon olimlari yozgan bir millionga yaqin nodir kitob yoqib yuborildi. Yadro quroli kashf etildi, bosqinchilik kurashlari avj oldi.

► Davomi 3-beta

“MILLAT SHAVKATI” – O‘TMISH SABOG‘I VA BUGUNGI HAQIQAT IFODASI

Munosabat

Siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning “Yangi O‘zbekiston” gazetasida chop etilgan “Millat Shavkati” nomli maqolasi keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Zero, unda so‘nggi yillarda Samarqand hayotida yuz berayotgan katta o‘zgarishlar hayotiy misollar orqali ifoda etilgan.

Ushbu maqolani o‘qib, Samarqand ta‘rifi orqali go‘yo O‘zbekiston tarixiga qayta nazar tashlagandek bo‘ldim. Zero, unda Samarqandning Amir Temur, Bahodir Yalangto‘sh davri hamda XIX-XX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy manzarasi tahlil qilingan. Davlatimiz rahbarining Samarqandga hokimlik yillarida ko‘rsatgan shijoati, bunyodkorlik ishlarini o‘qib,



bugungi islohotlarning ildizi o‘sha davrlarga borib taqalishiga ishonch hosil qiliasiz.

Muallifning “Yangi rahbar ilk ish kunini Samarqand xalqaro aeroportidagi holatni ko‘zdan kechirishdan boshladi. O‘shanda bir guruh faollar hamrohligida yo‘l-yo‘lakay ko‘chama-ko‘cha, mahallama-mahalla piyoda aylanib, hududning haqiqiy ahvoli,

odamlarning kundalik dardu tashvishlarini bevosita sinchiklab o‘rgandi”, deya qayd etishdan ham Prezidentimizning bugungi yangilanish, sohalarda tub islohotlarni amalga oshirish ishlari, bunyodkorlik harakati borasidagi teran fikrlari har doim bo‘lganini anglash qiyin emas.

► Davomi 3-beta

YANGI O‘ZBEKISTONNI DUNYOGA TARANNUM ETUVCHI OLTIN AVLOD



Bitiruvchi – 2026

Yurtimiz bo‘ylab jaranglagan so‘nggi qo‘ng‘iroq sadolari minglab yoshlar hayotida unutilmas sahifani boshlab berdi. “So‘nggi qo‘ng‘iroq” tadbirlari nafaqat bayramona ruh, balki katta mas‘uliyat va orzu-maqsadlarga to‘la muhitda kechdi. Qalbida katta umid bilan yangi hayot sari intilayotgan yoshlar uchun bu kun bolalik bilan xayrlashuv, orzularga yaqinlashuv ramzi bo‘ldi. Ana shunday hayajonli pallada Prezidentimizning bitiruvchilarga yo‘llagan tabrigi ularga yanada kuch, ishonch va ilhom bag‘ishladi.

Davlatimiz rahbari maktab ostonasidan mustaqil hayot sari qadam qo‘yayotgan bitiruvchilarni yangi O‘zbekistonning tayanchi, Uchinchi Renessans bunyodkorlari deb atadi. Shuningdek, yoshlarga bildirgan samimiy tilaklarida ularni Vatanga

sadoqatli, bilimli va tashabbuskor insonlar bo‘lishga chaqirdi. Zero, bugun maktabni tamomlayotgan yoshlar mamlakat kelajagini belgilaydigan kuchdir.

► Davomi 5-beta



ILM-FAN VA ILMIY KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI ZAMONAVIY TALABLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILADI

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, ilmiy daraja berish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish orqali ortiqcha byurokratik tartib-taomillarni qisqartirish taklif qilindi. Xususan, hozirgi kunda dissertatsiya himoyasi jarayonida amal qilyotgan tartib-taomillarning 50 foizi raqamlashtirish hisobidan qisqartiriladi. Mazkur jarayonda ko'p sonli hujjatlar chop etish, avtoreferatlar katta miqdorda tayyorlash hamda dissertatsiyalarni takroran muhokama qilish bilan bog'liq ortiqcha talablar bekor qilinishi nazarda tutilmoqda. Bu esa izlanuvchilar uchun qulaylik yaratish, vaqt va mablag' sarfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ilm-fan va iqtisodiyotning real sektori integratsiyasini kuchaytirish maqsadida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini amaliy tadqiqot loyihasi doirasida olishni nazarda tutuvchi "Loyiha doirasida ilmiy daraja" hamda "Amaliy doktorantura" dasturlarini yo'lga qo'yish taklif qilindi. Ushbu yondashuvlar doirasida doktorlik tadqiqotlari ishlab chiqarish va iqtisodiyotning amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. Bunda ilmiy izlanishlar real sektor korxonalar bilan hamkorlikda amalga oshirilib, ularning natijalarini amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ilmiy loyihalarni moliyalashtirish va saralash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi.

Jarayonga xalqaro ekspertlarni jalb qilish, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida loyihalarni baholash tizimini joriy qilish hamda ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishda shaffoflik va samaradorlikni oshirish ko'zda tutilmoqda. Shu bilan birga, ilmiy faollarning yuqori o'sish sur'atlarini taqdimot sifatini, akademik halollik va ichki ilmiy nazorat mexanizmlarini yanada kuchaytirishni talab etmoqda. Shu munosabat bilan olimlarning ilmiy faoliyatini kuzatishning yagona raqamli tizimini joriy etish, ilmiy etika standartlarini takomillashtirish, tadqiqot sifatini ustidan ta'sirchan monitoring mexanizmlarini yo'lga qo'yish taklif qilindi. Xorijda faoliyat yuritayotgan tajribali vatandosh olimlar bilan hamkorlikni yanada

kengaytirish masalalari ham muhokama markazida bo'ldi. Jumladan, ilm-fan sohasini xalqaro tajriba asosida rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot madaniyatini mustahkamlash hamda zamonaviy metodologik standartlarni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiquvchi Ilm-fan maslahat kengashini tashkil etish taklifi bildirildi. Davlatimiz rahbari taqdim etilgan takliflarni har tomonlama puxta ishlab chiqish, ilm-fan va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda ilmiy tadqiqotlar sifatini yanada oshirish muhimligini ta'kidladi. Mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

O'ZA



Sharh

FORMAL KAFOLATDAN REAL HUQUQIY KO'MAK MEKANIZMIGA O'TAYOTGAN YURIDIK YORDAM

Huquqiy davlatda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish samaradorligi qonunlarda belgilangan kafolatlar bilan birga fuqarolarning ushbu kafolatlardan amalda foydalana olishiga ham bevosita bog'liq. Ayniqsa, sudlarga murojaat qilish, huquqiy pozitsiyani shakllantirish, zarur hujjatlarni tayyorlash va o'z manfaatlarini asoslab berish jarayonida malakali yuridik yordam muhim o'rin tutadi.

Bu borada yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz g'oyat katta ahamiyatga ega. Chunki u bugun jamiyat va davlat boshqaruvi oldida turgan o'tkir va dolzarb masalalar yechimi, dunyoda o'zaro qarama-qarshiliklar, geosiyosiy jarayonlar keskinlashgan murakkab sharoitda "inson — jamiyat — davlat" o'rtasidagi munosabatlarni puxta o'ylangan strategiyasi ekanini ta'kidlash o'rinni. Bu jihat ham davlatchilik, ham inson huquqlari borasida boshlangan demokratik islohotlarimiz ortga qaytmaligining yorqin ifodasi, mustahkam kafolatidir. O'zbekiston Konstitutsiyasida har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda o'ylangan strategiyasi ekanini ta'kidlash o'rinni. Bu jihat ham davlatchilik, ham inson huquqlari borasida boshlangan demokratik islohotlarimiz ortga qaytmaligining yorqin ifodasi, mustahkam kafolatidir.

O'zbekiston Konstitutsiyasida har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda o'ylangan strategiyasi ekanini ta'kidlash o'rinni. Bu jihat ham davlatchilik, ham inson huquqlari borasida boshlangan demokratik islohotlarimiz ortga qaytmaligining yorqin ifodasi, mustahkam kafolatidir. Amaliyotga ko'ra, fuqarolar har doim ham ushbu huquqlardan mustaqil va to'liq foydalanish uchun yetarli huquqiy bilimiga ega bo'lavermaydi. Ayrim hollarda advokat yordami zarur bo'ladi, biroq moddiy imkoniyat cheklangani sababli bunday xizmatdan foydalanish oson kechmasligi mumkin. Shu bois, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimi fuqarolarning sud himoyasidan foydalanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqini amalda ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda 2023-yil 16-iyunda "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun kam ta'minlangan shaxslarning belgilangan tartibda malakali yuridik yordam olish imkoniyatini ta'minladi. Jumladan, fuqarolik ishlari bo'yicha davog'ar yoki javobgarlar, ma'muriy ishlari bo'yicha arizachilar, ma'muriy qamoq tarzidagi jazo nazarda tutilgan huquqbuzarlik ishlarida ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumlar davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo'ldi.

Sud-huquq sohasidagi islohotlarning keyingi bosqichi ushbu kafolatlarni konstitutsiyaviy odil sudlov sohasida ham aniq va ta'sirchan mexanizmlar bilan ta'minlashni taqozo etdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, muayyan ishda qo'llangan qonun fuqaro yoki yuridik shaxsning fikricha, uning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini buzayotgan hamda sudda himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo'lgan bo'lsa, ular ushbu qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish masalasi bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Bu huquq mazmunan juda muhim. Chunki fuqaro bunday holatda faqat alohida qaror yoki harakat yuzasidan emas, balki muayyan ishda qo'llangan qonun normasining Konstitutsiyaga mosligi masalasini ko'taradi. Tabiiyki, bunday murojaat huquqiy jihatdan puxta tayyorlanishi, unda qonun normasi va uning qo'llanishi hamda konstitutsiyaviy huquqlarga ta'siri aniq asoslanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, advokat ishtirokining ta'minlanishi fuqaro uchun ham, konstitutsiyaviy odil sudlov sifati uchun ham muhim.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda Konstitutsiyaviy sudga 2000 ga yaqin murojaat kelib tushgan. Ularning 15 foizi bevosita Konstitutsiyaviy sud vakolatiga tegishli bo'lgan. Bu ko'rsatkich fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni himoya qilish mexanizmlaridan foydalanishga ehtiyoji ortib borayotganini ko'rsatadi.

Biroq shu paytga qadar Konstitutsiyaviy sudga shikoyat bilan murojaat qilganda kam ta'minlangan shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tartibi qonunchilikda yetarlicha aniq belgilanmagandi. Bu esa amalda ayrim fuqarolar uchun konstitutsiyaviy odil

sudlovga murojaat qilish imkoniyatidan samarali foydalanishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin edi.

2026-yil 20-apreldagi "Kam ta'minlangan shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun aynan ushbu masalani huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratildi. Qonun bilan jismoniy shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan, to'liq yoki qisman davlat hisobidan ko'rsatiladigan malakali yuridik yordam tizimini yanada takomillashtirish nazarda tutildi.

Xususan, "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun hamda "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonunga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Endi kam ta'minlangan shaxs muayyan ishda sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llangan qonunning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi masalasi yuzasidan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilganda davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo'ladi.

Shu maqsadda "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunning 41-moddasi yangi qoida bilan to'ldirildi. Unga ko'ra, Konstitutsiyaviy sud shikoyat bilan murojaat etgan fuqaroning iltimosiga asosan, "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonunga muvofiq, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokat ishtirokini ta'minlash choralari ko'radi.

Shuningdek, "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonunning 17-moddasi ham tegishli norma bilan mustahkamlandi. Unga muvofiq, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish haqidagi boshqaruv huquqbuzarlik ishlarida shikoyat bilan murojaat etgan va bunday yordamni olish huquqiga ega bo'lgan fuqaroning iltimosiga ko'ra, Konstitutsiyaviy sud tomonidan "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali yuboriladi.

Ushbu tartibning joriy etilishi bir nechta amaliy natijaga xizmat qiladi. Birinchidan, kam ta'minlangan fuqarolarning Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish imkoniyati yanada kengayadi. Ikkinchidan, murojaatlarning huquqiy jihatdan sifatli tayyorlanishiga zamin yaratiladi.

Uchinchidan, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilgan deb hisoblangan holatlarda ularni himoya qilish imkoniyatlari yanada kuchayadi.

Muhimi, bu yangilik davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimini faqat formal kafolat sifatida emas, balki fuqaroga real huquqiy ko'mak beradigan amaliy mexanizm sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish murakkab huquqiy jarayon bo'lgani uchun bunda malakali advokat ishtirokining ta'minlanishi fuqaro manfaatlarini to'g'ri ifoda etishda muhim omildir.

Mazkur qonunning qabul qilinishi fuqarolarning konstitutsiyaviy odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, kam ta'minlangan shaxslarning davlat hisobidan malakali yuridik yordam olish huquqini ta'minlash va sud-huquq tizimiga ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, huquqiy davlatda inson huquqlarini himoya qilish imkoniyati fuqaroning moddiy ahvoriga bog'liq bo'lib qolmasligi lozim.

Shoxruh MAJIDOV,
Konstitutsiyaviy sud ekspertlar guruhi rahbari, 2-darajali adliya maslahatchisi,
Elyor DONIYOROV,
Konstitutsiyaviy sud bosh konsultanti

SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH VA SUV TEJAMKORLIGI MUHIM YO'NALISHLARDAN BIRI

Boshlanishi 1-betda

Mutasaddilarga suv fondi yerlarini ijaraga berish, monitoring qilish, shartnomalar tuzish va hisobotini onlayn yuritish bo'yicha axborot tizimini ishga tushirish topshirildi. Kosmik tadqiqotlar agentligiga daryo o'zanlari va suv xo'jaligi obyektlaridan qazib olinadigan qum-shag'al hajmini aniq hisoblash va tegishli idoralarga taqdim etish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda sel-toshqin suvlaridan foydalanish masalasi ham atroflicha ko'rib chiqildi. Iqlim o'zgarishi tufayli so'nggi yillarda qisqa vaqtida kuchli yomg'irlar ko'paymoqda. Bu esa sel-toshqinlar xavfini oshirmoqda. Ayniqsa, Samarqand, Jizzax va Toshkent viloyatlarining tog'li va tog'oldi hududlarida sel xavfi yuqori hisoblanadi. Sel-toshqinlar infratuzilma va qishloq xo'jaligigaгина emas, balki sanoat, sug'urta, logistika hamda tashqi savdoga ham zarar yetkazadi. Qolaversa, sel suvlari xavf manbai

bo'lish bilan birga suv zaxiralarni to'ldirish uchun ham katta imkoniyatdir. Mamlakatimizda sel xavfi mavjud 60 ta yirik suv orqali yiliga 690 million kub metr suv samarasiz oqib ketmoqda. Undan oqilona foydalanish orqali 13 ming gektar yerni qayta foydalanishga kiritish, suv ta'minotini yaxshilash va baliqchilikni rivojlantirish imkoniyati borligi ta'kidlanadi. Shu bois, sel suvlarini boshqarishda faqat to'g'on qurish bilan cheklanmasdan, integral yondashuvni ham joriy etish zarurligi qayd etildi. Bunda sel xavfini kamaytirish, suvni

to'plash, qishloq xo'jaligi, energetika, baliqchilik, turizm va xizmatlar sohasi bilan bog'liq loyihalarni birgalikda amalga oshirish nazarda tutiladi. Davlatimiz rahbari tomonidan mutasaddilarga suv infratuzilmasini iqtisodiy faollik manbaiga aylantirish, sel-toshqin xavflarini kamaytirish, suv zaxiralardan samarali foydalanish va mazkur yo'nalishda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish yuzasidan qator topshiriqlar berildi.

O'ZA

BMT BOSH ASSAMBLEYASI QIRG'IZISTON, TOJKISTON VA OZBEKISTON TOMONIDAN TAQDIM ETILGAN "CHEGARA NIZOLARINI TINCH YO'L BILAN HAL ETISH" TO'G'RISIDAGI REZOLYUTSIYANI MA'QULLADI

BMT Bosh Assambleyasi Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston tomonidan taqdim etilgan hamda 40 ta davlat hammualif bo'lgan "Chegara nizolarini tinch yo'l bilan hal etish" to'g'risidagi rezolyutsiyani ovoz berishsiz, konsensus asosida ma'qulladi, deya xabar bermoqda "Dunyo" axborot agentligi.

Ekspertlar bu voqealarni Markaziy Osiyo uchun ham, butun zamonaviy xalqaro amaliyot uchun ham fundamental ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy voqea sifatida baholamoqda. Rezolyutsiyaning rasman ovoz bermasdan, bir ovozdan qabul qilindi.

hamjamiyatining mintaqamizga bo'lgan so'zsiz qo'llab-quvvatlashi va yuksak ishonchidan dalolat beradi. Hujjat bugungi kunda global kun tartibidagi eng murakkab va dolzarb masalalardan biri — davlat chegaralarini

tinch yo'l bilan belgilash hamda huquqiy jihatdan rasmiylashtirishni aks ettiradi. Bu natijaga Markaziy Osiyoning barcha davlatlari rahbarlarining qat'iy siyosiy irodasi va uzoqni ko'ra bilishi hamda xalqlarimiz barqarorligi va farovonligining uzoq muddatli manfaatlarini joriy kelishmovchiliklardan ustun qo'ya olgani tufayli erishildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yilda e'lon qilingan O'zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosati muhim rol o'ynadi.

Qayd etilganidek, Toshkent tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar Bishkek va Dushanbe tomonidan qo'llab-quvvatlanib, mazmungan boyitildi hamda birgalikda amalga oshirildi. Uch davlat yetakchilari tomonidan davlat chegaralari tutashgan nuqta to'g'risidagi bitimning imzolaniishi va "Do'stlik stelasini"ning ochilishi tomonlarning hissiyasiy birdek qadrlangan ushbu keng ko'lami hamkorlikning mantiqiy yakuni bo'ldi.

STARTUPBLINK: STARTAPLAR BO'YICHA "O'ZBEKISTON — YIL MAMLAKATI"



Yangilik

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, raqamli ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Davlatimiz rahbari tomonidan sohani qo'llab-quvvatlash, yoshlar uchun imkoniyatlarni kengaytirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va startaplar uchun qulay investitsiya muhiti yaratish borasidagi tizimli islohotlar bugun o'zining aniq va amaliy natijalarini bermoqda.



Nodir ALIBEKOV,
Raqamli texnologiyalar vazirligi boshqarma boshlig'i

So'nggi yillarda mamlakatning global reytingdagi o'rni bosqichma-bosqich mustahkamlanib bormoqda. Jumladan, 2023-yilda 111-o'rin, 2024-yilda 110-o'rin, 2025-yil 98-o'rin, 2026-yilda esa 79-o'ringa ko'tarildi. Ya'ni O'zbekiston 2023-yildan buyon 32 pog'ona yuqoriladi.

Mazkur natijalar, avvalo, mamlakatimizda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar sohasiga davlat darajasida qaratilayotgan yuksak e'tibor samarasidir.

Joriy yil aprelda Prezidentimiz "IT Park Uzbekistan"ning Farg'ona shahridagi majmuasiga tashrif buyurib, u yerda yaratilgan zamonaviy sharoitlar, yoshlar uchun imkoniyatlar va innovatsion loyihalar bilan tanishdi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari poytaxtdagi AT Parkga tashrif chog'ida sun'iy intellekt texnologiyalarini vazirlik va idoralar faoliyatiga, iqtisodiyotning turli tarmoqlariga keng joriy etishga qaratilgan ilg'or loyihalar taqdimoti bilan tanishib, sohani jadal rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalarni belgilab berdi.

Bundan tashqari, Buxoro shahrida "Bukhara AI Week" doirasida o'tkazilgan "National AI Hackathon" — sun'iy intellekt bo'yicha umummilliy xakaton tadbiri ham mamlakatimizda sun'iy intellekt ekotizimini shakllantirish va startaplarni qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlarning amaliy ifodasiga aylandi. Mazkur tadbirda O'zbekiston hamda Qozog'iston Prezidentlari ishtirok etdi.

Bu muvaffaqiyatlar xalqaro maydonda ham keng e'tirof etilmoqda. Xususan, "StartupBlink" xalqaro tadqiqot platformasi tomonidan e'lon qilingan "Global Startup Ecosystem Index 2026" hisobotiga ko'ra, O'zbekiston global startap ekotizimlari reytingida 2025-yildagiga nisbatan 19 pog'ona yuqorilab, dunyoda 79-o'rinni egalladi. Eng muhimi, tadqiqotchilar tomonidan O'zbekiston "yil mamlakati" ("Country of the year") — startap ekotizimi eng jadal rivojlangan davlat sifatida e'tirof etildi. Hisobotga ko'ra, mamlakat bir yilda +227,3 foiz o'sish sur'atini qayd etgan. Bu 2026-yil reytingidagi eng yuqori natija sifatida baholandi. Shu bilan birga, O'zbekiston startap ekotizimi o'sish sur'ati bo'yicha o'rta global ko'rsatkichdan 13 barobar yuqori natijani namoyon qildi.

400 dan, 2025-yilda esa 750 tadan ziyodni tashkil etgan edi. Ularning 160 dan ortig'i xorijiy va mahalliy venchur fondlaridan investitsiya jalb qilgan.

Umumiy hisobda o'zbek startaplari tomonidan 400 million AQSH dollaridan ortiq investitsiya jalb qilindi. Mamlakatning ilk "yunikorn" kompaniyasi — Uzum esa jami 278 million AQSH dollaridan ortiq sarmoya jalb qilib, kompaniya qiymatini 2,3 milliard dollarga yetkazdi.

2025-yilda O'zbekiston startaplari 329 million AQSH dollaridan ortiq investitsiya jalb qildi. Bu 2024-yildagi 69,5 million dollarga nisbatan 473 foiz o'sish demakdir.

2025-yilda "IT Park Uzbekistan" tomonidan tashkil etilgan IT Park Ventures jamg'armasi ham 70 dan ortiq startap loyihasiga 7,1 million dollardan ziyod sarmoya kiritdi. Shuningdek, "IT Park Ventures" jamg'armasi kapitali 10 million AQSH dollaridan 30 million AQSH dollariga oshirildi.

"President Tech Award" tanlovi ham mamlakatda texnologik g'oyalar va yosh startapchilarni qo'llab-quvvatlaydigan muhim platformaga aylandi. 2023-2025-yillardagi 3 ta mavsumda 13 mingdan ortiq ishtirokchi va 1500 dan ziyod loyiha qatnashdi. Natijada 200 dan ortiq yangi ish o'rni ochildi hamda ishtirokchilar tomonidan 12 million dollardan ortiq venchur investitsiya jalb qilindi. Xususan, tanlov g'oliblaridan biri — TASS Vision startapi 1,3 million yevro miqdorida xalqaro investitsiya jalb qilishga muvaffaq bo'ldi.

2025-yilda jami 31 ta o'zbek startapi AQSH, BAA, Qozog'iston, Ozarbayjon va Rossiya

kabi yirik bozorlardagi xalqaro akseleratsiya dasturlarini muvaffaqiyatli yakunladi. 2024-yilda bu ko'rsatkich atigi 3 tani tashkil etgan edi. Bu yilma yil 930 foizdan ortiq o'sishni anglatadi.

Bugun 60 dan ortiq o'zbekistonlik startap asoschilari AQSHda faoliyat yuritmoqda. Xorijda o'zbekistonliklar tashkil etgan startaplar soni esa 100 dan oshgan.

"StartupBlink" hisobotida Markaziy Osiyo dunyodagi eng tez rivojlanayotgan startap hududi sifatida qayd etildi. Ushbu o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida Toshkent alohida tilga olindi.

Xususan, Toshkent startap ekotizimi +155,7 foiz o'sish ko'rsatkichi bilan mintaqadagi eng tez rivojlanayotgan shaharlardan biri sifatida e'tirof etildi. Jahon miqyosida esa Toshkent 121 pog'ona yuqorilab, dunyoning TOP-300 startap shahri qatoriga kirdi. Ushbu natija bilan Toshkent shahri Markaziy Osiyodagi eng ilg'or startap ekotizimi shahriga, MDH mamlakatlari orasida esa ikkinchi eng yaxshi ekotizimga aylandi. Shuningdek, Samarqand va Farg'ona shaharlari ham ilk bor dunyoning TOP-1000 startap shahri reytingiga kirdi.

Bugun mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, raqamli tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, AT park faoliyatini kengaytirish, startaplar uchun moliyaviy va infratuzilmaviy qulayliklarni oshirish, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish hamda yoshlar uchun texnologik imkoniyatlarni kengaytirish borasida keng ko'lami ishlar bajarilmoqda.

Prezidentimizning 2026-yil 11-fevraldagi "Startaplarni qo'llab-quvvatlashning kompleks ekotizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan mamlakat startap ekotizimi uchun ustuvor maqsadlar belgilab berilgan. Jumladan, 2030-yilga qadar mamlakatda startaplar soni 5000 taga, ular tomonidan jalb qilingan venchur investitsiyalar hajmi esa 2 milliard AQSH dollariga yetkazilishi kabi ko'rsatkichlar maqsad qilingan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun bosqichma-bosqich bajarilayotgan ishlar natija berayotgani "StartupBlink" hisobotida ham ko'rinmoqda.

O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon miqyosida ham startap va innovatsiyalar markazlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. "Country of the Year 2026" e'tirofi esa mamlakatimizdagi islohotlarning xalqaro darajadagi yana bir muhim tasdiqi bo'ldi.



Farovonlik xaritasi

YANGI UYG'ONISH FASLI HAYRATLARI

"Yurt qayg'usida 365 kun" kitobini o'qib...



Ahmadjon MELIBOYEV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

O'tgan asr adog'ida yuzaga kelgan o'ta qaltis vaziyatda taqdirimizni o'z qo'limizga oldik. Ko'plar bahorot qilganidek, O'zbekiston tanlagan yo'lini yo'qotib qo'ymadi. Bu yo'lda bizga xalqimizning asrlar davomida shakllangan tarixiy tajribasi, ulug' ajdodlarimizning ma'naviy merosi, shuningdek, yuksak insoniy fazilatlar qo'l keldi. To'g'ri yo'l va yechimlarni izlash, imkoniyatlarni ishga solish, boshqaruvni yangilash, sobiq tuzum qadriyatlaridan voz kechish harakati boshlandi. Ko'zlagan maqsadlarimizga bosqichma-bosqich erisha boshladik. Dunyo kengliklariga chiqdik, tinchlik-totuvlik, ahillik, inoqlik hamda bag'rikenglikni saqlab qoldik. O'rtga qaytmadik: goh susayib, goh tezlashib, izlab-qidirib bo'lsa ham yashashda va intilishda davom etdik.

Shu asosda bugungi yangi burihish nuqtasiga yetib keldik. Dunyo sahnasida "Yangi O'zbekiston" degan nom va ibora paydo bo'ldi. Prezidentimiz rahbarligida bunday mavqega erishish jarayoni shu qadar qat'iy tus oldiki, nafaqat poytaxtda, balki butun mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlarni

Yillar zanjiri mohiyatan bir-biridan uzilmaydi. Ularni bir-biriga o'xshash vaqt halqalari deiyish ham mumkin. Ammo hech bir inson, hech bir kun, oy yoki yil bir-biriga aynan o'xshaganidek, vaqt halqalari ham bir-biridan keskin farq qiladi. O'tgan va o'tayotgan umrimizning har kuni o'z xirmoni va salmog'iga ega. Keyingi o'n yilda, dunyo hamjamiyati rasman e'tirof etayotganidek, O'zbekiston natija va mohiyatiga ko'ra bir necha o'n yilliklarga teng rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Bu yo'l Prezidentimizning yangi bardavom siyosati bo'lib, u bundan o'n yil avval mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-psixologik holatni tanqidiy baholashdan, tahliiliy mushohada, taklif va tashabbuslarga yo'l ochishdan, xalqni tinglashdan va unga amalda yaqinlashishdan boshlandi.

Yangi siyosatning bosh maqsadi xalq bilan muntazam muloqotda bo'lish, muammolarni hal qilish edi. Shuningdek, biz bilan bir mintaqada yashab kelayotgan, suvi suvimizga, yo'li yo'limizga, yeri yerimizga tutash, milliy va diniy

O'zbekistonning shaharsozlik va urbanizatsiya sohasidagi strategiyasi, ijtimoiy himoya tizimi dunyo miqyosida jiddiy o'rganilmoqda. O'zbekiston rahbarining mintaqada tinchlikni saqlash va mustahkamlash borasidagi takliflari hamda amaliy harakatlari ijobiy natija bermoqda.

to'siqlardan tozalash, asossiz taqiqlarni, ko'rinnas "gora ro'yxat"larni bekor qilish, qonun buzilishlari va mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishga yo'l qo'ymaslik kabi ezgu intilishlar ushbu siyosatning negizini tashkil etdi.

Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning buyuk salohiyatini, ulug' tariximizni, dunyo tamaddunini hamon mash'ala yangilig' yoritib kelayotgan ma'naviy merosimizni jahonga olib chiqish vaqti kelgandi. Ilim-ma'rifatda xuddi milliy kurashimiz qoidalari kabi halol bahsa kirishish, tafakkur maydonida o'zlikni namoyon etish fursati edi.

Bu tarixiy jarayonni boshlash uchun, birinchi navbatda, jamiyatda sog'lom ma'naviy muhit yaratish, ijtimoiy adolatning qaror topishiga ishonch ruhini yuzaga keltirish talab etilardi. Butun vujud va ong-tafakkur bilan ishga kirishish, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni mamlakat miqyosida umumxalq harakatiga aylantirish zarur bo'ldi va bunga erishildi. Jamiyatning harakatsiz murvatlariga jon ato etish, fikr mudroqligiga barham berish uchun bugunning ruhiyatiga mos maqsadlarni aks ettiruvchi hayotbaxsh da'vatlar o'rtaga tashlandi. Mamlakatimiz yetakchisining ezgu maqsadlari ijtimoiy-ma'naviy hayotda yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldirdi, yangi O'zbekiston tashlayotgan yangi qadamlarning ma'no-mohiyatini aniq belgilab berdi.

Bugun mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida, xalqaro aloqalar, madaniyat va ma'naviyatda keng ko'lami ishlar bajarilmoqda. Maktabgacha, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi, turizm va sport sohalaridagi islohotlar samara bermoqda. O'zbekistonning tinch va bexavotir mamlakat sifatida e'tirof etilishi, iqtisodiyotimizning zalvorli qadamlari, yoshlarimiz erishayotgan olamshumul yutuqlar hamda xalqaro investorlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar barchaning diqqat markazida turibdi. Bularning barchasi O'zbekiston chin ma'noda yangi uyg'onish fasliga, o'z tarixining yangi va shonli bosqichiga yaqinlashayotganidan dalolat. Qolaversa, bu siljishlar "Milliy taraqqiyotdan — milliy yuksalishga" g'oyasi butun mamlakat bo'ylab amaliy harakatga aylanganini isbotlaydi.

Bunga misol juda ko'p. Xususan, bugun O'zbekistonning shaharsozlik va urbanizatsiya sohasidagi strategiyasi, ijtimoiy himoya tizimi dunyo miqyosida jiddiy o'rganilmoqda. O'zbekiston rahbarining mintaqada tinchlikni saqlash va mustahkamlash borasidagi takliflari hamda amaliy harakatlari ijobiy natija bermoqda.

Ulug' Konfutsiy "Umrida yiqilmagan kishi buyuk emas, balki necha bor yiqilgan, ammo o'midan shaxd bilan turib, o'ziga ishonch bilan oldinga intilgan odam buyukdir", degan ekan. Uning yana bir teran fikri shuki, yo'lga maqsadsiz chiqqan inson, shubhasiz, falokatga yo'liqadi. Biz bugun bosib o'tgan yo'limizni, erishgan yutuqlarimizni va yo'l qo'ygan xatoliklarimizni xolis baholamoqdamiz. Ularni qayta takrorlamaslik tadorigini ko'rib, aniq maqsad bilan faqat oldinga intilmomdamiz. O'zbekiston bir vaqtlar ilm-fan bobida dunyoga muallimlik qilgan ulug' ajdodlarimizning ilmi va merosiga amalda yaqinlashmoqda.

Bizga bugun yangi dunyoviy, iqtisodiy va siyosiy-ma'rifiy tafakkur zarur. Buni hammamiz his etib turibmiz. Ammo barchamiz birdek yaxshi bilishimiz zarur bo'lgan yana bir boshqa haqiqat bor: dunyo dunyo bo'lganidan beri insoniyat va fazilatlarini faqat yozma adabiyot orqali egallab kelgan. Bugun ham, ertaga ham shunday bo'lib qoladi. Boshqa yo'l yo'q. "Hamma ilm kompyuterga joylashadi, kitoblar hamda gazeta-jurnallarning umri tugaydi, qog'ozga ehtiyoj qolmaydi", deguvchilar qattiq yangilashdi. Adabiyotning ustoz Abdulla Qahhor aniq chamalagan qudratli kuchi bugun faqat bir mamlakat yoki bir mintaqada emas, balki butun yer yuzida inson taqdirini, uning bu yorug' olamda yashab qolish yoki qolmasligini hal qila oladigan xalqoskor omil bo'lib turibdi. Ulug' adib Chingiz Aytmatov xavotir bilan yozganidek, dunyoning bugungi ma'naviy-axloqiy qiyofasi oldida turgan eng katta va og'ir vazifa insonni inson maqomida saqlab qolishdir. Bu xavfni bartaraf etish ham bevosita adabiyotning vazifasiga kiradi. Chinakam adabiyot o'tmishda bu ishini ko'p urdadalagan, bugun va ertaga ham albatta uddalay oladi.

Bugungi O'zbekiston inson qo'li bilan barpo etilayotgan yangi hayratlar mamlakatidir. Islom olami va butun ma'rifiy dunyoni hayratga solgan Islom sivilizatsiyasi markazini ko'rgan, qolaversa, Prezidentimizning o'tgan bir yillik faoliyatiga bag'ishlanib, yaqindagina nashrdan chiqqan "Yurt qayg'usida 365 kun" kitobini o'qigan har bir kishi bunga qat'iy ishonch hosil qiladi.



Munosabat



"MILLAT SHAHKATI" — O'TMISH SABOG'I VA BUGUNGI HAQIQAT IFODASI

Boshlanishi 1-betda

Darhaqiqat, so'nggi yillarda Samarqand viloyati qiyofasi tubdan yangilanib, yanada zamonaviy, obod va ko'rkam hududga aylanmoqda. Bugun ko'z o'ngimizda viloyat tom ma'noda o'zgardi. O'zgarishlar nafaqat bizni, balki butun xorijiy do'stlarimizni ham hayratga solmoqda. Hududdagi yangilanishlar faqat markaziy shahar doirasida cheklanib qolmadi. Ayniqsa, diniy-ma'rifiy majmualar, Urgut tumanidagi sanoat zonalar, eksport salohiyati va yangi infratuzilmalar yuksak darajada rivojlandi.

Xususan, Samarqandning xalqaro nufuzini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar alohida e'tiborga molik. "Boqiy shahar" majmuasi, zamonaviy aeroport, yangi turistik va madaniy infratuzilmalar qadimiy kentga yangicha ruh baxsh etib, uni xalqaro diplomatiya va turizmning muhim markazlaridan biriga aylantirmoqda.

Bugun dunyo siyosatchilari, nufuzli xalqaro tashkilotlar va yirik investorlar e'tiborini tortayotgan Samarqand tom ma'noda yangi O'zbekistonning ochiqlik, muloqot va taraqqiyot ramzi sifatida namoyon bo'lyotir.

Binobarin, o'tgan qisqa muddatda Prezidentimiz tashabbusi bilan Samarqandda keng ko'lami islohotlar, ulkan bunyodkorlik ishlari bajarildi. Shaharda zamonaviy infratuzilma shakllandi, ravon yo'llar, yangi massivlar,



Botirali SHODIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan islom dunyosi uchun chinakam e'tiqod timsoli sifatida barpo etilgan ushbu majmua shunchaki ziyoratgoh emas, buyuk muhaddisning islom olamidagi nufuzi va maqomiga mos mahobatli inshoot, ma'naviyat maskaniga, ta'bir joiz bo'lsa, O'zbekiston durdonasiga aylandi. Zero, ushbu betakror bunyodkorlik namunasi yangi O'zbekistonning ulkan salohiyati va keng imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi.



Samarqanddagi islohotlar jarayonini kuzatib, bir xulosaga kelamiz: bu o'zgarishlar faqat hududiy rivojlanish emas, balki yangi O'zbekistonning uzoq muddatli strategik maqsadlari amalga oshirishining amaldagi yorqin ifodasidir.

zamonaviy turar joylar, ta'lim, sport va ijtimoiy soha obyektlari barpo etildi. Bu yangilanishlar zamirida davlatimiz rahbarining Samarqand taraqqiyotiga qaratayotgan alohida e'tibori, tarixiy merosiga yuksak hurmati, xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan izchil siyosati va bunyodkorlik g'oyasi mujassam.

Oxirgi yillarda viloyat mamlakatimizdagi jadal rivojlanayotgan hududlardan biriga aylandi. Xususan, 2025-yilda Samarqandning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarida barqaror o'sish qayd etilgan. Yalpi hududiy mahsulot hajmi 8 foiz, sanoat ishlab chiqarish 8,5 foiz, qurilish ishlari 17,3 foiz, chakana savdo 10,3 foiz, xizmat ko'rsatish hajmi 15,9 foiz oshdi. Tashqi savdo aylanmasi 33,6 foiz, eksport 29,9 foiz, asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar esa 25,6 foiz o'sdi.

Payariq tumanida joylashgan Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi to'liq qayta qurilgan natijasida ziyoratchilarga xizmat ko'rsatish salohiyati sezilarli darajada oshdi. Ilgari majmua bir kunda 12 ming ziyoratchini qabul qilgan bo'lsa, endi ushbu ko'rsatkich 65 mingga yetdi.

So'nggi to'qqiz yilda viloyatning barcha tarmoqlarida yuksalish, rivojlanish bo'ldi, deiyshga barcha asoslarimiz bor. Bugun Samarqandda nafaqat binolar va yo'llar, balki odamlarning dunyoqarashi, hayotga kechayotgan yangilanishlar balandparvoz so'zlar emas, balki xalq turmushi, shahar qiyofasida va insonlar kayfiyatida namoyon bo'layotgan hayotiy haqiqat.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va Samarqand farzandi sifatida aytish mumkinki, bugungi o'zgarishlar alohida hodisa emas, balki mamlakatimizdagi tizimli islohotlarning uzviy va mantiqiy davomidir. Viloyatda shakllanayotgan yangi shaharsozlik yondashuvi, investitsiya muhiti yaxshilanishi hamda xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivoji bu jarayonlarning barqarorligini tasdiqlab turibdi.

Samarqanddagi islohotlar jarayonini kuzatib, bir xulosaga kelamiz: bu o'zgarishlar faqat hududiy rivojlanish emas, balki yangi O'zbekistonning uzoq muddatli strategik maqsadlari amalga oshirishining amaldagi yorqin ifodasidir.

Boshlanishi 1-betda

Sho'rolarning yalpi dahriy siyosati, milliy va diniy tuyg'ularning oyoqosti qilinishi kabi zug'umlar chorak asr avval tarixga aylangan ikkinchi ming yillikda qolib ketadi, deb umid qilingandi. Odamzod yangi asrga ruhan va ma'nadan poklanib, aql-idroki, fahm-farosatini chaxlangan holda o'tadi, yo'l qo'ygan xatolaridan to'g'ri xulosa chiqaradi deb ishonardik. O'zini, ona zaminni, suv va havoni, boshiga soyabon bo'lib turgan beg'ubor osmonni pok tutadi, qurollanish poygasi jilovlanadi, to'plarning og'zida kabutarlar bola ochadi, bunday qilmasa, o'zi halok bo'ladi deb o'ylagan insoniyat bugun bu "anglab bo'lmas sir" oldida hayratda. Chunki poklanishi, tinchlanishi va rohat-farog'at beshigiga aylanishi kerak bo'lgan dunyo yana asov to'liqday pishqirib, umumfalokat sari yuzlanmoqda.

Taassufki, kutilganidek bo'lmadi. Dunyo favqulodda murakkablashib ketdi. Inson go'yoki o'zi o'tirgan daraxt shoxiga arra tortish (Erkin Vohidov ta'biri bilan aytganda), o'zini va bolalarini to'ydirayotgan yerni zaharlash, okean suvini chiqindiga to'ldirish, o'rmonlarga o't qo'yish kabi mash'um harakatlari bilan tubsiz jarlik va yo'qlik sari yaqinlashib borayotganday. Buni nogahoniy yer o'pirlilishlari, suv toshqinlari, hosidor yerlarning sho'rlanishi, muzliklarning erishi kabi falokatlarida yaqqol ko'rish mumkin.

Faqat shu emas. Bo'lingan dunyoni qayta bo'laklash, iqtisodiyot va siyosatda yakka hukmfirmolik qilish niyati, shuningdek, irqiy va diniy mojarolar sovuq urush siyosati paytidagidek shitob bilan, yanada kuchli va vahimali sur'atda davom etmoqda. Ommaviy qirg'in qurollarining misli ko'rilmagan yangi va dahshatli turli ixtiro qilinmoqda, qudratli davlatlar esa ularni faxr-iftixor bilan namoyish etmoqda. Qonli front yo'nalishlarida bir tomon: "Bugun dushmanning faloncha askari yo'q qilindi", desa, ikkinchi tomon: "Biz har oyda dushmanning falon askarini o'ldirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik", deya jar solmoqda. Dahshatli shundayki, ko'pchilik va raqamlarni hech ajablanmas, xuddi "Kecha falon musobaqada mingdan ortiq kishi qatnashdi" degan axborotday qabul qilmoqda. Bir-birini qirish musobaqasida alohida "namuna" ko'rsatganlar ko'ksiga esa oliy nishonlar taqdimolmoqda.

Insoniyat — kattayu kichik, o'g'riyu to'g'ri, olimu zolim, qattolu donishmand mohiyati tobora mavhumlashib borayotgan bugungi davrda bir sayyorada, ya'ni bir qayiqda yashamoqda. Makon, yeri osmon — bitta. Bunday sharoitda tinchlikni va tiriklikni saqlab qolish, uy qurish, bog' yaratish, kelajak nasllarning nasibini qirqmaslik eng muhim vazifa, vijdon va iymon ishiga aylanadi. Bu jarayondan hech kim chetda qolmasligi kerak. Manfaatli hamkorlik, muloqot, bir-birini tushunish va hurmat qilishdan boshqa najot yo'li yo'q. Zamonaviy qurollar nechog'liq kuchli bo'lmasin, shu choqqacha ham, bugun va ertaga ham tinchlikka, ezgulikka xizmat qilmaydi. Otilgan har bir o'qqa boshqa bir jinoyat aks sado beradi.



hazm qilish, ularning ma'no-mohiyatiga yetish faqat xorijliklar uchun emas, balki o'zimiz uchun ham hayratlanarli bo'lmoqda. Bundan atigi o'n yil avval keldirki "Yosh o'zbek qishi mamlakatning yangi metallurgiya zavodini ishga tushiradi, yosh olim AQSH maktablari uchun zamonaviy dasturlar yaratib beradi, O'zbekiston dunyoga mashhur London birjasiga a'zo bo'lib, mamlakat iqtisodiyotida yangi tarixiy sahifa ochiladi, har yili o'n besh ming vatandoshimiz haj ziyoratiga boradi, mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 146 milliard dollarga yetadi, dunyoning yetakchi mamlakatlari rahbarlari yangi O'zbekistonni o'zi uchun kashf etadi", desa, bu gapga ishonadigan birorta kishi topilmas edi. Bugun esa bunday olamshumul yutuqlar mamlakat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotining oddiy va kundalik voqealariga aylanib qoldi. Xalqimizning ishonchi komilki, milliy taraqqiyot shiddati shunday davom etar ekan, yana besh-o'n yildan keyin bundan-da hayratlanarli, milliy tarix solnomasini bezayidigan voqealarga shohid bo'lamiz va ularni ham, xuddi bugungidek, oddiy qabul qilamiz.

qadriyatlar, urf-odatlarini mushtarak qo'shnilar o'rtasidagi asrlar sinovidan o'tgan hamkorlik aloqalarini qayta tiklash maqsad qilindi. O'zaro mehr-oqibat ko'rsatish, yo'llarni sun'iy



2026-yil 26-may, 106-son

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash global darajadagi muhim vazifadir. Ayniqsa, dunyoda kuzatilayotgan geosiyosiy vaziyat va murakkab iqlim o'zgarishi sharoitida bu yanada dolzarblik kasb etmoqda. Keyingi yillarda yurtimizda "Daladan dasturxongacha" tamoyili asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmi joriy etildi. Natijada mahsulot ishlab chiqarish, saqlash, tashish va sotishdagi barcha jarayon isloh qilindi. Bu aholini barqaror oziq-ovqat bilan ta'minlashda ijobiy natijalarga olib kelgani bor haqiqat. Ayni paytda milliy mahsulotlarimiz raqobatbardoshligi oshib, xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyati kengaydi.

Shu o'rinda aniq raqamlar orqali oziq-ovqatga ehtiyojni qisqacha tahlil etsak. Qashqadaryo viloyatida joriy yilda 1 million tonnadan ortiq don, 729 ming tonna sabzavot, 350 ming tonna kartoshka, 260 ming tonna poliz, 201 ming tonna meva, 116 ming tonna uzum, 379 ming tonna go'sht, 1509 ming tonna sut, 594 millionta tuxumni bozorga chiqarish reja qilingan.

Mutaxassislarining aytishicha, viloyat aholisi uchun yiliga o'rtacha 340 ming tonna kartoshkaga ehtiyoj bor. Bu yilgi ko'zlangan reja bajarilsa, ehtiyoj to'la qoplanib, undan 10 ming tonna kartoshka ortib ham qoladi. Shuningdek, viloyat ahli ehtiyoji uchun yiliga 25 ming tonna piyoz, 73 ming tonna sabzi, 36 ming tonna guruch, 160 ming tonna go'sht, 55 ming tonna parranda go'shti, 773 millionta tuxum, 34 ming tonna o'simlik yog'i talab etiladi.

Aholi soni o'sishi barobarida oziq-ovqatga ehtiyoj ham ortib boradi. Bu esa soha vakillari oldiga ishlab chiqarish hajmini muntazam ko'paytirib, islohotlarni izchil davom ettirish zarurati qo'yadi.

Islohotlar jarayoni kelgusidagi ehtimoliy holatlar hisobga olinayotgani bilan ahamiyatli. Masalan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda 3 ta yo'nalishda ishlab chiqarish reja qilingan. Birinchisi, ichki imkoniyatlarni safarbar qilib, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish. Ikkinchisi, boshqa viloyatlardan olib kelish hamda viloyatda yetishtirilgan mahsulotlar hajmidan kelib chiqib, tumanlararo intervensiyani ta'minlash. Uchinchisi, xorijdan olib kelishga ehtiyoj kuchli bo'lgan mahsulotlar hajmini oshirish uchun importyorlarni qo'llab-quvvatlash.

Masalan, kartoshka va go'shtga doim talab yuqori. Ularni esa viloyatda yetishtirish uchun yetarli imkoniyat, salohiyat bor. Faqat ilm bilan samarali mehnat qilinsa, barcha muammolarga yechim topish mumkin.

Shu yil 12-may kuni Prezidentimiz raisligida oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirish hamda chorvachilik sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda bir qator topshiriqlar o'ldik, — deydi Qashqadaryo viloyati hokimi Murodjon Azimov. — Shundan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, oziq-ovqat ta'minotini oshirish har birimizning burchimiz. Harakat qilganki, yangidan yangi loyihalarni yo'lga qo'yib borsak, natija ijobiy tomonga o'zgaradi. Shu paytgacha vohaning issiq havosida kartoshka bo'lmaydi degan tushuncha bor edi. Lekin o'tgan yili Misk kompaniyasi bilan "Agro gold Premium" MCHJ hamkorlikda Kitob tumanidagi tajriba o'zini oqladi. O'rganishlar davomida nafaqat Kitob, balki Nishon tumanining yaylov yerlari ham kartoshka yetishtirishga mos ekani ma'lum bo'ldi. Shu sabab joriy yilda Nishonda 1200 gektar yaylov yer ajratildi. Bu yerlar o'zlashtirilib, kartoshka va chorva ozuqasi yetishtiriladi. Bahorgi mavsumda 40 gektarda, iyul-avgust oylarida yana 350 gektarda kartoshka ekiladi. Hozir 6 ta yomg'irlatib sug'orish texnologiyasi o'rnatilmoqda. O'tgan yili viloyatda 208 ming tonna kartoshka hosili olindi. Bu yilgi marra yanada katta.

Viloyat qishloq xo'jaligi mutaxassislari ma'lumotiga ko'ra, bahorgi mavsumda

fermerlarning 7 ming gektar hamda dehqon xo'jaliklari va aholi xonadonlarining 15 ming gektardan ortiq maydoniga kartoshka ekildi. Bundan tashqari, viloyat bo'yicha 49 ming gektar asosiy maydonlarga oziq-ovqat ekinlari ekilgan. Kutilayotgan hosil esa 1,6 million tonnani tashkil etadi. Xususan, 1805 gektar degan cheklarida sabzavot, poliz, dukkakli va moyli ekinlar urug'i sepilgan. Shuningdek, joriy yilda g'alladan bo'shagan 81 ming gektar maydonga oziq-ovqat va ozuqabop ekinlar ekilib, 1,4 million tonna mahsulot yetishtiriladi.

Bundan yetti-sakkiz yil ilgari viloyatda issiqxonalar sanoqli edi. Bugun ko'rsatkich



Daladan dasturxongacha

keskin oshdi. Ko'plab xonadonlarda issiqxonalar qurilgan. Natijada bozorlar qishda to'kin. Yilning to'rtinchi faslida ham istalgan meva va sabzavotni topish mumkin.

Hozir viloyatdagi 348 ta subyektning 420 gektar issiqxonasi bor. Ulardan yil boshidan buyon 10,4 ming tonna pomidor va 12,2 ming tonna bodring hosili olindi. Yana 2 ming tonna hosil kutilmoqda. Joriy yilda 4305 gektarda bog' yaratish reja qilingan. Dehqonlar 1,8 ming gektar yeriga meva, 400 gektar uzum va 283 gektar no'xat ekib, yuqori hosil olishi ko'zlanmoqda. Masalan, Dehqonobod tumanida 204 gektar, Yakkabog'da 63 gektar, Shahrisabzda 16 gektar maydonga no'xat va Qamashi tumani Chimg'o'rg'on suv ombori atrofida 200 gektar mosh ekilgan. "Global Export Company" MCHJ Kitob tumanida 1,6 ming gektar maydonga organik meva yetishtirishni boshlagan.

Dehqon xo'jaliklariga yer ajratilishi odamlarda yerga egalik hissi, mehnatga ishonchni va ertangi kunga umidni kuchaytiradi, — deydi mirishkorlik dehqon Murod to'la Qoryoq'deyev. — Ishsiz yoki daromad kam bo'lgan minglab fuqarolar shu berilgan yerdan baraka topib, oilasi to'kinligi uchun mehnat qilyapti.

Hozir viloyatda 23 ming gektar yer 39,4 ming fuqaroga dehqon xo'jaligi qilib berilgan. Shundan

21,7 ming gektariga joriy yil uchun asosiy ekinlar ekildi. 3,4 ming gektar yerda sabzavot, 5,1 ming gektarda poliz, 1,5 ming gektarda kartoshka, 1,6 ming gektarda dukkakli, 747 gektarda moyli hamda 9,3 ming gektarda boshqa mahsulotlar yetishtirilmoqda. Ajratilgan yer maydonlaridan 14,6 ming gektarida "Bir kontur — bir mahsulot" tamoyili asosida sardaromad va eksportbop ekin ekish tashkil etilmoqda. Shu yil hisobidan 179 ta lotdan tashkil topgan ijara yer maydonlariga investitsiya olingan 66 ming tup gilos, bodom va olxo'ri ko'chati ekildi. 195 ta mahallada "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili asosida aholi tomonlarida ekin ekish davom etmoqda.

Chorvachilik yuqori daromad keltiradigan, eksportbop va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega yo'nalishdir. Sohadagi ahamiyatli masalalardan biri ozuqa bazasini kuchaytirish. Endi ozuqabop ekinlar ekishga keng yo'l ochilmoqda. Bu chorva mahsulotligini oshirishning asosiy omili.

Yangi tizim orqali viloyatda yirik sanoatlashgan chorvachilik komplekslari tashkil etiladi. Bu zamonaviy texnologiya asosida harakatlanadigan yangi ishlab chiqarish quvvatlari olinadi. Jumladan, kelgusi 2 yilda viloyatda qoramollar bosh sonini 1,9 milliontaga, qo'y va echkilar bosh sonini 6,8 milliontaga, parrandalari

bosh sonini 8,5 milliontaga yetkazish, chorvachilik (go'sht va sut) mahsulotlarini sanoat usulida qayta ishlash darajasini 50 foizga olib chiqish hamda nasldor qoramollar ulushini 90 foizga yetkazish orqali chorva mollari mahsulodortligini oshirish reja qilingan.

Buning uchun joriy yilda qiymati 856 milliard so'mlik 259 ta loyiha ishga tushirildi. Muhimi, 13 ming bosh yirik sho'xli va 72 ming 300 bosh mayda sho'xli mol olib kelinadi. Natijada 1184 ta ish o'mi ochiladi.

Bugungacha qiymati 108 milliard so'mlik 61 ta loyiha amalga oshirildi. Ya'ni 19 ming 800 bosh qo'y va 1700 bosh qoramol olib kelindi.

Joriy yilning 30-mart—3-aprel kunlari viloyat delegatsiyasi Belarus Respublikasida xizmat safarida bo'ldi. Unda qator loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi. Xususan, viloyatdagi "Asl yuksalish savdo" korxonasi Vitebsk viloyati Shumilini tumanida "Qashqadaryo ChorvaUz" MCHJ ochdi. Tadbirkor dastlab shu tumanidagi 2 ta chorva kompleksini ijara oldi. Birinchi bosqichda 1 ming bosh chorva boqish yo'lga qo'yilaydi. Buning uchun tadbirkor hozir 2 ming gektar yerni ijara olish taraddudida.

Chorvadorlarning ta'kidlashicha, Belarusda chorva ozuqasi yetishtirish tanarxi arzon. Chorva mollari nasldor, iqlimi qulay. Shu bois,

vohalik tadbirkor 1 bosh qoramoldan 4 oyda 8-10 million so'm sof foyda ko'rishni mo'ljallagan. Bu ko'rsatkich vohada 2 baravar kam.

Viloyatdagi yana 4 tadbirkor Belarusda ish boshlash tashabbusini bildirgan. Shu o'rinda tadbirkorlarimizning xorijda faoliyat yuritishi qanday foyda keltiradi degan savol tug'ilishi tabiiy.

Avvalo, tabiiy iqlim sabab soha tez rivojlanadigan mamlakatda daromad yuqori bo'ladi. Olingan foyda esa to'g'ridan to'g'ri mamlakatga sarmoya bo'lib kiradi. Qolaversa, mehnat muhojirlari, xorijdagi vatandoshlar ishonchli va daromadli ish o'mi topish imkoniga ega bo'ladi. Bundan har

bir yil viloyatga yer o'zlashtirish uchun byudjetdan 50 milliard so'm ajratilgan. Ushbu mablag'lar hisobidan 4 ta loyiha amalga oshirildi. Qamashi tumanida 1,8, Yakkabog'da 21,9, Mirishkorda 14,6 kilometr kanal, lotoklar tarmog'i qurildi va rekonstruksiya qilindi. Nishon tumanida esa 7 kilometr qumuv tortiladi. Hozir mazkur obyektning loyiha-smeta hujjatlari to'liq ishlab chiqilib, ekspertizadan o'tkazilmoqda. Bu ishlar natijasida 5248 gektar yer o'zlashtiriladi, qayta foydalanishga kiritiladi. Shu bilan birga, tadbirkorlarga 10 yil muddatgacha imtiyozli kreditlar berish yo'lga qo'yilgan.

Paxtachilik, g'allachilik va (yoki) chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar sug'oriladigan yerlarning ko'pi bilan 20 sotixda chorva uchun bino yoki ombor qurishga ruxsat berilmoqda. Buning uchun xo'jalik yeri 10 gektardan kam bo'lmasligi kerak. Bino kamida 2 gektardagi yaxlit maydondan iborat konturda qurilishi zarur. Shunda ruxsat etilgan foydalanish turini ichki xo'jalik yer tuzish loyihasiga asosan chorva mollari va chorva uchun ozuqani saqlash va ko'paytirish turiga o'zgartirishga yo'l qo'yiladi. Qolaversa, viloyatdagi paxta va g'allachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining 2510 tasida chorva, parranda va asalari boqish uchun yengil konstruksiyali molxona va boshqa binolar qurish reja qilingan.

Yana muhim jihat. Fermer yer turini o'zgartirishi yer nobudgarchiligi deya baholalanib, kompensatsiya undiriladi. Bugungacha viloyatda 838 ta fermer yer tuzish loyihalari ishlab chiqib, 96 gektar nobudgarchilik o'rini qoplash uchun 39 milliard so'm to'lashi kerak edi. Prezidentimizning tegishli qarori bilan bu to'lovlar 10 foiz miqdorida qo'llanilmoqda. Bu esa fermerlarga katta rag'bat bo'lib, 35 milliard so'm mablag' tadbirkorlarning o'zida qolyapti.

Qashqadaryoda naschilik va sun'iy urug'lantirish tizimi rivojlanib bormoqda. Bajarilayotgan ishlar, yangi loyihalar buning yaqqol dalili. Jumladan, belgilangan dasturga ko'ra, viloyatdagi 151 ta veterinariya uchashtasi tomonidan aholi xonadonlaridagi 104 ming bosh sigir identifikatsiya qilindi.

58,5 ming bosh sigir sun'iy urug'lantirildi. Yil yakunigacha bu ko'rsatkich 191 ming boshga yetkaziladi. Shuningdek, 607 ming bosh qoramol identifikatsiya qilindi.

Umuman olganda, chorvachilik sohasi ilmiy yondashuv, raqamli texnologiya va zamonaviy boshqaruv asosida rivojlanadigan tizimga aylandi.

Hozir Buyuk Britaniyaning "Yunayed Grin" kompaniyasi bilan O'zbekistonda sut aralashmasi ishlab chiqarishga oid 300 million dollarlik loyiha bo'yicha ishlanmoqda. Bu loyiha doirasida Nishon, Mirishkor va Muborak tumanlarida 12 ming gektar maydonga iqlimga mos "aqli" qishloq xo'jaligi tizimi joriy qilinadi. Natijada yuqori sifatlilik, makkajo'xori silosi, makkajo'xori doni va almashlab ekiladigan arpa, soya hamda kungaboqar kabi ozuqa ekinlari yetishtiriladi va 10 ming bosh qoramol boqish yo'lga qo'yiladi. Bu yiliga 50 million dollariga import o'rini bosadigan mahsulot va 4 mingdan ortiq ish o'mi yaratiladi degani.

yaylovga cho'l o'simliklari — izen, olabo'ta, shuvoq urug'lari ekildi. Bundan tashqari, Jahon bankining 2,7 milliard so'm mablag'i o'zlashtirildi. Buning evaziga viloyatdagi 7 ta o'rmon xo'jaligi tomonidan 4,5 ming gektar yaylovda qayta tiklash ishlari olib borildi. Kelgusi 2 yilda viloyat bo'yicha degradatsiyaga uchragan 50 ming gektar yaylovni qayta tiklash rejalashtirilgan. Masalan, Qamashi tumanida namunaviy loyiha asosida 6 gektar maydonga Turkiyadan keltirilgan, iqlimga mos hosildor beda urug'i ekildi. "Biodrift" kompaniyasi tomonidan yomg'irlatib sug'orish texnologiyasi joriy qilindi.

Chorva ozuqasi ekinlari urug'chiligi bo'yicha Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti hamda Chorvachilik ilmiy-tadqiqot institutining viloyat filiali bilan birga ishlanmoqda. Aholi xonadonlarida chorva ozuqasini yetishtirish bo'yicha seminarlar tashkil qilinmoqda.

Soha mutaxassislarining aytishicha, joriy yil viloyatga yer o'zlashtirish uchun byudjetdan 50 milliard so'm ajratilgan. Ushbu mablag'lar hisobidan 4 ta loyiha amalga oshirildi. Qamashi tumanida 1,8, Yakkabog'da 21,9, Mirishkorda 14,6 kilometr kanal, lotoklar tarmog'i qurildi va rekonstruksiya qilindi. Nishon tumanida esa 7 kilometr qumuv tortiladi. Hozir mazkur obyektning loyiha-smeta hujjatlari to'liq ishlab chiqilib, ekspertizadan o'tkazilmoqda. Bu ishlar natijasida 5248 gektar yer o'zlashtiriladi, qayta foydalanishga kiritiladi. Shu bilan birga, tadbirkorlarga 10 yil muddatgacha imtiyozli kreditlar berish yo'lga qo'yilgan.

Paxtachilik, g'allachilik va (yoki) chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar sug'oriladigan yerlarning ko'pi bilan 20 sotixda chorva uchun bino yoki ombor qurishga ruxsat berilmoqda. Buning uchun xo'jalik yeri 10 gektardan kam bo'lmasligi kerak. Bino kamida 2 gektardagi yaxlit maydondan iborat konturda qurilishi zarur. Shunda ruxsat etilgan foydalanish turini ichki xo'jalik yer tuzish loyihasiga asosan chorva mollari va chorva uchun ozuqani saqlash va ko'paytirish turiga o'zgartirishga yo'l qo'yiladi. Qolaversa, viloyatdagi paxta va g'allachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining 2510 tasida chorva, parranda va asalari boqish uchun yengil konstruksiyali molxona va boshqa binolar qurish reja qilingan.

Yana muhim jihat. Fermer yer turini o'zgartirishi yer nobudgarchiligi deya baholalanib, kompensatsiya undiriladi. Bugungacha viloyatda 838 ta fermer yer tuzish loyihalari ishlab chiqib, 96 gektar nobudgarchilik o'rini qoplash uchun 39 milliard so'm to'lashi kerak edi. Prezidentimizning tegishli qarori bilan bu to'lovlar 10 foiz miqdorida qo'llanilmoqda. Bu esa fermerlarga katta rag'bat bo'lib, 35 milliard so'm mablag' tadbirkorlarning o'zida qolyapti.

Qashqadaryoda naschilik va sun'iy urug'lantirish tizimi rivojlanib bormoqda. Bajarilayotgan ishlar, yangi loyihalar buning yaqqol dalili. Jumladan, belgilangan dasturga ko'ra, viloyatdagi 151 ta veterinariya uchashtasi tomonidan aholi xonadonlaridagi 104 ming bosh sigir identifikatsiya qilindi.

58,5 ming bosh sigir sun'iy urug'lantirildi. Yil yakunigacha bu ko'rsatkich 191 ming boshga yetkaziladi. Shuningdek, 607 ming bosh qoramol identifikatsiya qilindi.

Umuman olganda, chorvachilik sohasi ilmiy yondashuv, raqamli texnologiya va zamonaviy boshqaruv asosida rivojlanadigan tizimga aylandi.

Hozir Buyuk Britaniyaning "Yunayed Grin" kompaniyasi bilan O'zbekistonda sut aralashmasi ishlab chiqarishga oid 300 million dollarlik loyiha bo'yicha ishlanmoqda. Bu loyiha doirasida Nishon, Mirishkor va Muborak tumanlarida 12 ming gektar maydonga iqlimga mos "aqli" qishloq xo'jaligi tizimi joriy qilinadi. Natijada yuqori sifatlilik, makkajo'xori silosi, makkajo'xori doni va almashlab ekiladigan arpa, soya hamda kungaboqar kabi ozuqa ekinlari yetishtiriladi va 10 ming bosh qoramol boqish yo'lga qo'yiladi. Bu yiliga 50 million dollariga import o'rini bosadigan mahsulot va 4 mingdan ortiq ish o'mi yaratiladi degani.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Yurtning obod go'shalari

Karmana tumanidagi Shibzon mahallasi tomorqadan samarali foydalanishda azaldan boshqalarga namuna. "Mahalla yettilligi"ning hamjihatlikda har bir xonadon imkoniyati va muammosini o'rganishni yutuqlarga zamin hozirlamoqda. Xususan, aholiga kredit olish, biznes boshlash, issiqxonaga qurish, tomorqadan samarali foydalanish bo'yicha har tomonlama ko'mak berilyapti. Natijada odamlar barqaror daromadga ega bo'lib, mahalla ishsizlikdan xoli hududga aylandi.

Hozir mahallada 300 dan ziyod issiqxonaga bor. Ulardan 170 tasi shu yilda qurildi. Shuning o'ziyiq yil sayin aholining ishlabonimlik ruhi kuchayib borayotganidan dalolat. Mahallada "Bir kontur — bir mahsulot" tamoyili asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilyapti.

Jumladan, Shuhrat Karimov o'ng 10 sotixli issiqxonasidan bir yilda to'rt martagacha hosil olmoqda. E'tiborsiz, u va ayoli davlat tashkilotlarida ishlaydi. Shunga qaramay, oila bo'sh vaqtida tomorqadan unumli foydalanib, mo'may daromad topmoqda.



— 2024-yilda issiqxonamiz yo'q edi. O'shanda ro'zg'or uchun oz-ozdan turli qishloq xo'jaligi ekinlari ekardik, — deydi Shuhrat Karimov. — O'tgan yili mahalla mas'ullari issiqxonaga qurishni taklif qildi. Buning uchun 33 million so'm kredit olib ish boshladik. Issiqxonaga o'tgan yilning o'zidayoq daromad keltirishni boshladik. Mutaxassislar tavsiyasi bilan 4 martagacha hosil oldik. Bu yil pomidor ekdik va tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'ydik. Turmush o'rtog'im bilan ikkinchi davlat tashkilotida ishlaganimiz bois, issiqxonaning kundalik yugumshini tongda va tushdan keyin bir soatdan vaqt

ajratib bajaramiz. O'tgan yili 150 million so'm daromad oldik. Joriy yil yanada ko'proq foyda topishni niyat qilib, ishlayapmiz.

Oilaning tomorqadan yuqori hosil olishida yer bilan tillashgan mirishkorlarning tajribasi va maslahati muhim o'rin tutmoqda. Bu mahallada tomorqachilik madaniyatini ommalashtirishga xizmat qilyapti. Ushbu jarayonda mahalla raisi boshchiligidagi faollar tashabbuskorlik ko'rsatmoqda.

— Mahallamizda 1300 ta xonadon bor. Ulardan 6000 dan ziyod odam yashaydi, — deydi Shibzon mahallasi raisi Abdulla Ergashev. — Faollarimiz tashabbusi bilan har bir xonadonda issiqxonaga tashkil etish bo'yicha targ'ibot o'tkazdik. Aholiga bu borada har tomonlama ko'mak berildi, kredit ajratildi. Natijada mahalladoshlarimiz tomorqadan samarali foydalanib, barqaror daromad manbaiga ega bo'lyapti. Hozir mahallamizda ishsiz odam yo'q. Bu yaratilgan imkoniyatlar va islohotlarning amaliy natijasidir. Shu bilan birga, mahallamizdagi 40 ga yaqin xonadonda quvvati 50 kilovatt dan ziyod quyosh panellari o'rnatilgan. Bu orqali elektr

O'N SOTIXDAN 150 MILLION SO'M DAROMAD



energiyasi tejaliishi barobarida mahalladoshlarimiz qo'shimcha daromad ham olyapti.

Ayni vaqtda Shibzonda tomorqachilikda faqat an'anaviy usullar emas, balki zamonaviy texnologiyalar ham qo'llanilmoqda. Jumladan, Avaz Ochilov yomg'ir suvidan unumli foydalanib, tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'ygan. Bu, o'z navbatida, suvni tejash, xarajatni kamaytirish va hosildorlikni oshirishga xizmat qilyapti. Shuningdek, xonadonda biogumus tayyorlab, ekinlar tabiiy oziglaniriladi. Mehnatkash dehqon ushbu mehnat tufayli namunali tomorqachi deya e'tirof etilgan. Ayni vaqtda Avaz Ochilov yomg'ir suvidan to'plab berishni yo'lga qo'ygan. Shu orqali kelgusida baliqchilik bilan ham shug'ullanmoqchi.

Mahallada yangi soha va yo'nalishlar ham rivojlanayapti. Ayniqsa, baliqchilikni yo'lga qo'yishni istaydiganlar soni kundan kunga ko'paymoqda.

— Daryo yaqinidagi bu yerlar avval qarovsiz edi, — deydi tadbirkor Shavkat Sharipov. — Undan unumli foydalanish choralarini izlab, bankdan kredit oldik. Buning evaziga 8 gektarda baliq uchun hovuzlar tashkil etdik. Ularga 600 mingdan ortiq chavaq tashlangan edi. Olti oyda qariyb 100 tonnaga yaqin baliq yetishtirildi. Ushbu tashabbus ortidan o'n kishi ish bilan ta'minlangan. Baliqchilikni mahalliy bozorda sota boshladik. Kelgusida ushbu ko'l atrofini obodonlashtirib, aholi uchun baliq ovlaydigan sharoit qilib, zamonaviy dam olish joyiga aylantirmoqchimiz.

Mahalladagi qaysi xonadonga kirsangiz ham yerdan samarali foydalanishdagi o'ziga xos tajribani ko'rasiz. Mahalla mas'ullari va faollari aholiga bu borada yaqin ko'makchi bo'lmoqda.

— Yutuqlarimiz siri oddiy. Yaxshi tashabbus va loyihalarni odamlar ijobiy qabul qilib, o'zaro maslahatlashib, hayotga tatbiq etyapti, — deydi

Shibzon mahallasidagi hokim yordamchisi Jasur Shakarov. — 2025-yilda 1,5 milliard so'mlik kredit evaziga aholi tomorqasiga issiqxonaga qurib berildi. Buning uchun avval tomorqasida ochiq maydonda ekin ekayotgan xonadonlar tanlab olindi. Jarayonda ko'p yillik tajribaga ega dehqonlar va mutaxassislarining tavsiyasi ham qo'l kelmokda. Dastlab issiqxonalarida faqat pomidor va bodring ekiladi. Hozir mahalladoshlar qulupnaydan ham yaxshi hosil olyapti. Bundan tashqari, asalarichilik ham rivojlanmoqda. Intensiv usulda Eron, Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi asosida baliqchilik yo'lga qo'yilmoqda.

Bu borada davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlar, kredit va subsidiyalar, mahallabay ishlab tizimi katta ahamiyat kasb etyotir. Ushbu mahallaning tajribasi boshqa hududlar uchun ham namunaga aylanmoqda.

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

YANGI O'ZBEKISTONNI DUNYOGA TARANNUM ETUVCHI OLTIN AVLOD



Boshlanishi 1-betda

So'nggi yillarda uzluksiz ta'lim tizimi rivoji yangi bosqichga ko'tarildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida boshlab bitiruv tadbirlari o'ziga xos yutuqlar bilan ko'tarinkilikda tashkil etilyapti. Bugun maktab tayyorlov guruhlari to'la qamrab olinayotgan 6 yoshli bolalar boshlang'ich ta'limga, avvalgidan farqli o'laroq, ilk savodini chiqargan holda qadam qo'yyapti.

Maktab bitiruvchilarining muddatidan avval talaba bo'lishi ham oddiy holga aylandi. Bitiruvchilarning aksariyati zamonaviy bilimlarga ega, xorijiy tillarni biladigan, milliy va xalqaro sertifikatlarni o'lg'a kiritgan

yoshlardir. Ularga katta ishonch va umid bilan moliyaviy resurslar yo'naltirilyapti. Zero, mustaqil hayot bo'sag'asida turgan 472 ming bitiruvchi 472 ming taqdir degani. Hech biri e'tibordan chetda qolmaydi. Ularga yo'llangan samimiy tabrikda ham bunga ishora qilingan. Tadbirkor yoshlarga imtiyozli kreditlar, startap loyihalari egalari ajratiladigan mablag'lar yoshlarni ulkan kashfiyotlar va bunyodkorliklarga undashiga shubha yo'q.

Allomalardan biri "Agar ta'lim sizga juda qimmatga tushayotgan bo'lsa, johillik sizga qancha tushishini hisoblab ko'ring", degan edi. Shu ma'noda, bugun ta'lim tizimida borayotgan yo'limiz qanchalar to'g'ri, sarflayotgan mablag'imiz qanchalik o'rinni ekanidan ko'nglimiz to'g'ri.

So'nggi qo'ng'iroq tadbirlari nafaqat o'quvchilar, balki ustozlar uchun ham hayajonli. Chunki o'n bir yil davomida har bir o'quvchi o'z farzandiga bo'lib qoladi. Men ham uzoq yillar o'qituvchi bo'lib ishlaganman. Shu mashaqqatli va o'ziga xos sharafli kasb ortidan obro' topdim. Lekin oson ish emas. Hali qo'lga qalam ushlashni bilmagan bolajonga bor kuchini sarflab, hayotga tayyorlashning o'zi bo'lmaydi. Buning uchun kuchli iroda, metindek bardosh zarur. Turli xarakterdagi yosh bilan muomala qila olish zarur. Gohida toliqasiz. Ishingizni sevganingiz uchun yana harakatdan to'xtamaydiz. Ammo so'nggi bitiruv kechasiga kelib, o'quvchilaringiz bilan xayrlashish ham oson kechmaydi.

BITIRUVCHILARGA HAVASIM KELADI

Kecha Qarshi shahridagi 5-maktabdagi so'nggi qo'ng'iroq tadbirida ishtirok etdim. Bir xil kiyimda, qo'llarida dasta gullar bilan qaldirg'och kabi saflanib turgan o'g'il-qizlarni ko'rib, ko'zlarim quvonchga to'ldi. Rosti, ularga havasim keldi. Axir ular shunday farovon, go'zal yurtning ertasi. Eng quvonarli, bugungi yoshlar maktabni bitirib, o'qishni to'xtatib qo'yamaydi. Oliyoghlarda tahsil olishadi. Bunga imkoniyat bor. Aksariyati muddatidan oldin talaba bo'lgan. Bunday imkoniyatlar ilgari bormidi? Birgina Qashqadaryoning o'zida sanoqligina oliygoh mavjud edi. Ularga kirolmaganlar armondada qolardi.

Tadbirda davlatimiz rahbarining bitiruvchi o'g'il-qizlarga yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdim. Unda Prezidentimiz "Albatta, bugungi bitiruvchi — ertangi muhandis, shifokor, olim, shoir va adib, tadbirkor degani. Bugungi bitiruvchi — Uchinchi Rennessans bunyodkori degani. Sizlar Yangi O'zbekistonning eng katta ishonchi va tayanchisiz...", deya yoshlarga katta mas'uliyat yukladi.

"Bugun qishloqdagi oddiy maktab bitiruvchisi ertaga dunyo tan oladigan olim bo'ladi. Bugun oldiga katta maqsadlar ko'rgan, intiluvchan, izlanuvchan yoshlarimiz ertaga millionlab insonlarga

xizmat qiladigan texnologiyalarni yaratadi. Bugun kitob o'qiyotgan bir qizaloq ertaga mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqadigan farzandlarni tarbiyalaydi. Shu bois, har biringiz kamida bittadan



Muhabbat SHAROPOVA,
O'zbekiston Qahramoni

xorijiy til va zamonaviy kasbni egallashga harakat qiling. Bu kelajakka ochilgan eshik, siz uchun qo'shimcha imkoniyat va rag'batdir...", degan so'zlari esa yoshlarga katta kuch bag'ishladi.

Shaxsan davlatimiz rahbari qo'llab-quvvatlab turar ekan, yoshlarimiz faqat ilm olishi shart va men ishonaman, ular shu yo'lida harakat qiladi. Buning samarasida farzandlarimiz ilm-fanda, sportda faqat va faqat yuqori natijalarni o'lg'a kiritadi va kiritmoqda ham. Misol uchun, joriy yilda birgina 5-maktabda 117 o'g'il-qiz 11-sinfni tugatayapti. Shundan 71 nafari milliy va xalqaro sertifikatni o'lg'a kiritibdi. Bu maktab jamoasi uchun katta yutuq. Ustozlar mehnati samarasi. Men ham bir ustoz sifatida maktabni bitirayotgan har bir o'quvchiga yangi hayot ostonasida omad tilayman. Yangi O'zbekistonning kelajagi uchun yetuk kadrlar bo'lib yetishi yo'lida hech qachon toliqmasin.

Maktab — insonning beg'ubor bolaligini yodga soluvchi, ezgu va nurli orzular bilan bog'liq tabarruk maskan. 25-may kuni mamlakatimizdagi barcha umumta'lim maktablarida 2025/2026-o'quv yili yakuniga bag'ishlangan "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirlari bo'lib o'tdi. Ayniqsa, Prezidentimizning maktab bitiruvchilariga yo'llagan tabrigi o'quv yili nihoyasiga oid tantanalarga, bitiruvchilar, ustozlar va ota-onalarga o'zgacha ruh bag'ishladi.



"SO'NGGI QO'NG'IROQ" SADOSI — MUSTAQIL HAYOT BOSHLANISHI

— "So'nggi qo'ng'iroq" shunchaki o'quv yili yakunlanishi emas, balki minglab yoshlar hayotida yangi orzular, katta maqsadlar va mustaqil hayotga qo'yilayotgan ilk qadamdir. — deydi Termiz shahridagi 11-maktab o'qituvchisi, "Shuhrat" medali sohibi Dilbar Normurodova. — Boshqacha aytganda, maktablarda yanragan oxirgi qo'ng'iroq sadosi nafaqat xayrlashuv, balki bilimli yoshlar uchun buyuk kelajakka chaqiriq hamdir.

Surxondaryo viloyatidagi 978 maktabda ham bitiruv tadbirlari bo'lib o'tdi. Joriy o'quv yili yakunida viloyatdagi 37 ming 790 nafar 11-sinf va 48 ming 403 nafar 9-sinf bitiruvchisi mustaqil hayotga qadam qo'ymoqda. Ularning 326 nafari oltin, 86 nafari kumush medal bilan ta'lim jarayonini tamomladi.

Jumladan, Termiz shahridagi 26-maktabda o'tkazilgan tadbirda bitiruvchi sinflar o'quvchilarining ota-onalari, o'qituvchilar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

— Hayotimda o'zgacha kun. Davlatimiz rahbarining maktab bitiruvchilariga yo'llagan bayram tabrigida yoshlarning bilimli, vatanparvar va zamonaviy kasb egalari bo'lib yetishishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhim ekani ta'kidlandi. Prezidentimiz ishonchini oqlashga harakat qilaman, — deydi maktab bitiruvchisi Nozima Xurramova.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

ZAMONAVIY SHAROITLAR — BUYUK MARRALAR ASOSI

Mana, yana bir karra ustozlik sharafigan bahramand bo'lib, eng hayajonli onlarni boshdan o'tkazib turibmiz. Mamlakatimiz bo'yab katta hayotga qadam tashlayotgan 472 ming bitiruvchi orasida o'quvchilarning ham bor. Davlatimiz rahbari maktab bitiruvchilariga yo'llagan bu galgi tabrikdan hatto biz, ustozlar ham hayajonlandik. Negaki bu yil hech qachon bo'lmagan, yangi imkoniyatlar taqdim etilyapti. Alohida imtiyozlar ularga hayotda o'z o'rini topishi uchun katta yo'l ochyapti. Ayniqsa, tadbirkor bo'lishni istagan yoshlarga arzon kreditlar taqdim etilishi, startap loyihalarni boshlagan bitiruvchilarga mablag' berilishi har qanday yigit-qizni harakatga undaydi.

Zero, tabrikda ta'kidlanganidek, chin dildan intilsa, harakat qilsa, yangi O'zbekiston yoshlari ham buyuk marralarni zabt etishga qodir.

Yakunlanayotgan o'quv yili respublikamiz bo'yab bitiruvchilarning qator yutuqlariga erishgani bilan quvonarli kechdi. Maktabni tugatmay turib, nufuzli oliygohlarda talabasi aylangan 171 ming yosh ko'plab tengdoshlari va ota-onalarini ruhlantirgani aniq. Bizning o'quvchilarning orasida ham katta yutuqlarga erishib kelayotganlari talaygina. 11-sinf o'quvchisi Mohlaroy Ibroiljonova muddatidan oldin talaba bo'ldi. Bitiruvchilarimizdan 2 nafari oltin medalga tavsiya etildi. 42 nafar o'g'il-qizimiz milliy va xalqaro sertifikat egalari bo'ldi.

60 dan ziyod oliy ma'lumotli pedagogimiz bilan nasib qilsa, keyingi o'quv yilida yutuqlarimiz salmog'ini karrasiga oshiramiz. Zero, ushbu o'quv yilidagi sifat ko'rsatkichlarimiz o'tgan yildagiga nisbatan yuqori bo'ldi.

Har yili o'quv yili yakunida biz, maktab rahbarlari, barcha ustozlar qalbidagi bitiruvchi yoshlarga yuksak tilaklar, eng ezgu istaklar qaynaydi. Necha yillik mashaqqatli mehnatimiz ro'yog'ga chiqsa, yoshlarimiz ulkan muvaffaqiyatlarga erishsa, yuzimiz yorug' bo'ladi. Endi maktab ta'limi, o'qituvchilar katta natijalar, ishonchli odimlarga sababchi bo'ladigan davr keldi. Zero, alohida e'tibor, zamon talablariga mos sharoitlarning barchasi ta'limga



Xolmirza AHMEDOV,
Qo'rg'ontepa tumanidagi
27-maktab direktori

yo'naltirilyapti. Shunday ekan, islohotlarga hamohang buyuk marralarni zabt etadigan yoshlarni tarbiyalash biz uchun eng ulug' sharaf.



Kamolaxon ABRORXONOVA,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Bugun mamlakatlar taraqqiyoti inson kapitali, ya'ni bilimli, tafakkuri teran, ma'naviy yetuk yoshlar bilan belgilanishi haqida ko'p gapirilmoqda. Bu to'g'ri ta'kid. Zero, kelajak bugungi yoshlar qo'lida, ularning bilimi va ilmida.

Prezidentimiz kuni kecha maktab bitiruvchilariga yo'llagan tabrigida ham bu jihatga alohida e'tibor qaratib, bugungi bitiruvchi ertangi muhandis, shifokor, olim, shoir, adib, tadbirkor, Uchinchi Rennessans bunyodkori hamda yangi O'zbekistonning eng katta ishonchi va tayanchi ekanini alohida ta'kidladi.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash tizimi tubdan o'zgardi. Endilikda muammo yuqoridan turib emas, balki mahallaning,

TA'LIM VA TARBIYA islohotlarning asosiy ustunidir



maktabning o'zida, yoshlarning yonida turib hal qilinmoqda. Bu yondashuv ularning ta'lim olishi, kasb egallashi, ish bilan band bo'lishi va eng muhimi, jamiyatda o'z o'rini topishiga xizmat qilmoqda. Yoshlar tarbiyasida faqat moddiy imkoniyatlar yetarli emas. Eng muhim omil — ma'naviy muhit. Sog'lom muhit bo'lsa, yoshlarning dunyoqarashi to'g'ri shakllanadi. Kitobxonlik, sport, san'at, jamoaviy tadbirlar orqali yoshlar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazadi, zararli oqimlar ta'siridan uzoq bo'ladi.

Hozirgi kunda yurtimiz maktablariga, kasb-hunar kollejlarga, oliy ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor Uchinchi Rennessans poydevorini yaratishga puxta zamin yaratadi.

Maktab bitiruvchilari uchun mamlakatimizdagi 207 ta oliygoh va 643 ta texnikum zamonaviy bilim, kasb va malaka berishga tayyor. Tirishqoq, o'z kuchiga ishongan yoshlarimiz hali maktabni tugatmasdan turib, yurtimizdagi, chet eldagi nufuzli oliygohlarga kirishga ulgurayotgani esa yanada quvonarli. Masalan, joriy yil 171 yosh dunyoning yetakchi universitetlariga,

yana minglab bitiruvchilar mamlakatimizdagi oliygohlarga qabul qilindi.

Tabrikdagi yana bir jihat — kitobxonlikka ham alohida urg'u berildi. Bugungi tez o'zgarayotgan davrda hayotga, uning keskin talablariga tayyor bo'lishda eng yaqin do'st va eng kuchli qurol kitob ekani eslatildi, kitobga oshno bo'lish uqitirildi. Gap kitobxonlik haqida ketar ekan, yangi O'zbekistonda mutolaa madaniyati, kitobga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini allaqachon his etyapmiz, sezyapmiz. Kitobxonlik millatimiz, xalqimizning kelajagi, mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlaydigan beqiyos ma'naviy kuchga aylangani hozirgi sa'y-harakatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bundan bir necha kun avval kitobxonlikni umummilliy xalq harakatiga aylantirish yo'lida tarixiy qadam qo'yilgandi. Ya'ni endi mamlakatimiz bo'yab "Milliy kitobxonlik harakati" dasturi amalga oshirildi. Mazkur dasturning final bosqichi Prezident darajasida o'tkaziladi. Uning umumiy yillik mukofot fondi 240 ming dollarni tashkil etadi. Bosh sovrin sohibi 50 ming dollar bilan taqdirlanadi. Bu mamlakatimiz tarixida kitobxonlik bo'yicha eng salmoqli mukofotdir. Harakat yurtimizning barcha hududlarini to'liq qamrab oladi. Unda umumta'lim maktablari, jumladan, 1-sinfdan 11-sinfgacha bo'lgan o'quvchilari ishtirok etadi.

Umuman, yurtimizda yoshlar ta'lim-tarbiyasini tizimli takomillashtirishga millat kelajagiga daxldor siyosat sifatida qaralayotgani har jihatdan o'rinni va to'g'ri. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, qaysi xonadonda kitob o'qilsa, o'sha oilada bilim va ma'naviyat bo'ladi. Qaysi jamiyat ko'p o'rgansa, izlansa, o'sha jamiyat, albatta, taraqqiy etadi.



Kamolot kaliti

Aniq fanlar yurtning ilmiy taraqqiyotida mo'jizalar yaratadi, adabiyot esa haqiqiy vatanparvarlarni tarbiyalaydi, voyaga yetkazadi. Kitob barcha yaxshi xulq hamda mukammal bilimlar asosi.



Sayyora TO'YCHIYEVA, hakamlar hay'ati a'zosi, professor

Har qanday millatning buyukligi, avvalo, uning ilmga munosabati va kitobxonlik madaniyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Ulug' mutafakkirlarimiz — Imom Buxoriyning "Al-jome as-sahih", Imom Termiziyning "Sunani Termiziy", Muhammad Xorazmiyning "Al-jabr val muqobala", Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari", Abu Rayhon Beruniyning "Sayohatnoma", Alisher Navoiyning "Xamsa", Mirzo Ulug'bekning "Zij jaddidi Ko'ragoniy" kabi asarlari qadimiy turkiy ma'rifating shoh asarlari bo'lgan.

Inson tafakkurini va dunyoqarashini o'zgartirib yuboradigan, ezgu maqsadlar sari yo'llaydigan adabiyotlarni o'qish, tahlil va targ'ib qilish masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi esa yangi O'zbekiston kelajagi uchun strategik investitsiya bo'lib, bilimdon yoshlarning oltin fondini yaratishga keng yo'l ochmoqda.

Yaqindagina Xalqaro kongress markazida O'zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha umummilliy harakatga start berish marosimida ishtirok etdim.

Ma'lumotlar yashin tezligida yangilanib, globallashtirib borayotgan, turli gadgetlar va sun'iy intellekt raqamlashgan dunyoga keskin ta'sir qilayotgan hozirgi davrda kitobga, mutolaaga bunday e'tibor etarga, albatta, katta natijalarni beradi.

Kitob o'qimagan odam fikrlashdan to'xtaydi. Fikrlamagan, tafakkur qilmagan odamning esa jamiyatga foydasi kam. Shuning uchun ham barcha bunyodkorlikning va ilmu donishning asosi kitobdir, deymiz.

Davlatimiz rahbari mazkur harakat mamlakatimizning barcha hududini qamrab olishi, umumta'lim maktablarining 1-sinfidan 11-sinfgacha bo'lgan o'quvchilari mutolaa tanlovlarida ishtirok etishini e'lon qilganida ayni loyihaning ko'lami va ertaga qanday samara berishi haqidagi tasavvur barcha ziyolilarga qanot bag' ishladi.

Tanlov o'tgan 9 yilda 5 millionga yaqin yoshni qamrab oldi. 2022-yilda ushbu tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan yoshlar soni 640 ming, 2023-yilda 805 ming, 2024-yilda 913 mingni tashkil etdi. Bu yil esa rekord darajada — 950 ming o'g'il-qiz qatnashdi.

Yurtimizda yoshlarning qalbini ulg'aytiradigan, dunyoqarashini kengaytiradigan va ziyoli insonlar bo'lib yetishishiga kuch beradigan imkoniyatlar juda ko'p. Mazkur tanlov ana shunday imkoniyatlardan. Unda kitob bor, demak, unda ma'rifat, tafakkur va eziglik mujassam. Ana shu uch tushunchaga oshno inson hayotda, albatta, o'z o'rini topadi. Prezidentimizning beshta muhim tashabbusi doirasida yuzaga kelgan mazkur tanlov tufayli kitob o'qigan inson hayotda bemaol o'z o'rini topa olishi hamda boshqalardan kam bo'lmasligi o'z isbotini topmoqda.



BILIMLI YOSHLAR – UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI Yosh kitobxonlar Bekobodda bellashdi

Ulug'lar aytganidek, "Bir insonning saboti butun millatni isloh qilishga qodir" ekanini va bu qutlug' harakat yangi nomlarni kashf etishi tayindir.

Yoshlar ishlari agentligi mutasaddilari bilan birga mamlakatning barcha hududidan to'plangan uch yosh toifasidagi jami 42 nafar hududiy g'olib hamrohligida biz, hakamlar hay'ati a'zolari Bekobod sari yo'l oldik.

Bekoboddagi kitobxonlik tanloviga ko'rilgan tayyorgarlikni ko'rib, ko'zimiz quvnadi. Bekobodliklarning aytishicha, tuman ahli bu tanlovga bir yil davomida tayyorgarlik ko'rgan. Ixtisoslashtirilgan maktab eng zamonaviy qulayliklar asosida hozirlangan bo'lib, otanalar hamda ishtirokchilar uchun tayyorgarlik xonalari, yotoqxona va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uchun sharoitlar poytaxtdagidek yuqori sa'yiyada yaratilgan.

Deputat Yoqutxon Mo'minovaning ta'kidlashicha, "Har maktabga 100 kitob" tashabbusi doirasida yil davomida tumandagi 60 ta umumta'lim va 3 ta xususiy maktabga jami 20 mingga yaqin adabiyot sovg'a qilingan. Ushbu adabiyotlar har bir maktabga 500 dan ziyod akademik, olim, shoir, yozuvchi va jurnalistlarning dastxati bilan topshirildi. Shuningdek, 51 mahallada kutubxonalar sa'yiyada yaratilgan.

Deputat Yoqutxon Mo'minovaning ta'kidlashicha, "Har maktabga 100 kitob" tashabbusi doirasida yil davomida tumandagi 60 ta umumta'lim va 3 ta xususiy maktabga jami 20 mingga yaqin adabiyot sovg'a qilingan. Ushbu adabiyotlar har bir maktabga 500 dan ziyod akademik, olim, shoir, yozuvchi va jurnalistlarning dastxati bilan topshirildi. Shuningdek, 51 mahallada kutubxonalar sa'yiyada yaratilgan.

Deputat Yoqutxon Mo'minovaning ta'kidlashicha, "Har maktabga 100 kitob" tashabbusi doirasida yil davomida tumandagi 60 ta umumta'lim va 3 ta xususiy maktabga jami 20 mingga yaqin adabiyot sovg'a qilingan. Ushbu adabiyotlar har bir maktabga 500 dan ziyod akademik, olim, shoir, yozuvchi va jurnalistlarning dastxati bilan topshirildi. Shuningdek, 51 mahallada kutubxonalar sa'yiyada yaratilgan.

Deputat Yoqutxon Mo'minovaning ta'kidlashicha, "Har maktabga 100 kitob" tashabbusi doirasida yil davomida tumandagi 60 ta umumta'lim va 3 ta xususiy maktabga jami 20 mingga yaqin adabiyot sovg'a qilingan. Ushbu adabiyotlar har bir maktabga 500 dan ziyod akademik, olim, shoir, yozuvchi va jurnalistlarning dastxati bilan topshirildi. Shuningdek, 51 mahallada kutubxonalar sa'yiyada yaratilgan.

Deputat Yoqutxon Mo'minovaning ta'kidlashicha, "Har maktabga 100 kitob" tashabbusi doirasida yil davomida tumandagi 60 ta umumta'lim va 3 ta xususiy maktabga jami 20 mingga yaqin adabiyot sovg'a qilingan. Ushbu adabiyotlar har bir maktabga 500 dan ziyod akademik, olim, shoir, yozuvchi va jurnalistlarning dastxati bilan topshirildi. Shuningdek, 51 mahallada kutubxonalar sa'yiyada yaratilgan.

Deputat Yoqutxon Mo'minovaning ta'kidlashicha, "Har maktabga 100 kitob" tashabbusi doirasida yil davomida tumandagi 60 ta umumta'lim va 3 ta xususiy maktabga jami 20 mingga yaqin adabiyot sovg'a qilingan. Ushbu adabiyotlar har bir maktabga 500 dan ziyod akademik, olim, shoir, yozuvchi va jurnalistlarning dastxati bilan topshirildi. Shuningdek, 51 mahallada kutubxonalar sa'yiyada yaratilgan.

Deputat Yoqutxon Mo'minovaning ta'kidlashicha, "Har maktabga 100 kitob" tashabbusi doirasida yil davomida tumandagi 60 ta umumta'lim va 3 ta xususiy maktabga jami 20 mingga yaqin adabiyot sovg'a qilingan. Ushbu adabiyotlar har bir maktabga 500 dan ziyod akademik, olim, shoir, yozuvchi va jurnalistlarning dastxati bilan topshirildi. Shuningdek, 51 mahallada kutubxonalar sa'yiyada yaratilgan.

Deputat Yoqutxon Mo'minovaning ta'kidlashicha, "Har maktabga 100 kitob" tashabbusi doirasida yil davomida tumandagi 60 ta umumta'lim va 3 ta xususiy maktabga jami 20 mingga yaqin adabiyot sovg'a qilingan. Ushbu adabiyotlar har bir maktabga 500 dan ziyod akademik, olim, shoir, yozuvchi va jurnalistlarning dastxati bilan topshirildi. Shuningdek, 51 mahallada kutubxonalar sa'yiyada yaratilgan.



Shuning uchun ham "Yosh kitobxon" respublika tanlovining final bosqichiga aynan Bekobodda start berildi!

"Afsona" yoshlar bog'ida milliy libosda, nonu tuz bilan kutib olgan tumanning barcha yoshlar yetakchilari tanlov oxirigacha — bellashuv jarayonlarida biz bilan birga bo'ldi.

Ilm — insoniyat gahvari

Shunday qilib, bellashuv boshlandi. Nizomga asosan, tanlov besh bosqichda tashkil etildi: birinchisi — arizalar qabul qilish va mahalla bosqichi, ikkinchisi — sektor bosqichi, uchinchisi — tuman (shahar) bosqichi, to'rtinchisi — hududiy (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) bosqich, beshinchisi esa respublika bosqichi. Finalda "Badiiy asarlar bilimdoni", "Tezkor savol-javob", "Buyuk mutafakkir va adiblar asarlari bayoni", "She'riyat" hamda "Kvest" shartlari asosida musorasiz bellashuvlar bo'lib o'tdi.

Tanlov ishtirokchilari Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' mutafakkirlarimizning hayoti va ijodidan, shuningdek, Jek London, Gabriel Garsia Marques, Mark Tven, Lev Tolstoy, To'le'pbergen Qaipberganov, Ibroym Yusupov, Kengesboy Karimov kabi xorij va qardosh adabiyot vakillari, qolaversa, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Odil Yoqubov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shukur Xolmirmirzayev, Halima Xudoyberdiyeva, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Tursunboy Adashboyev, Dilshod Rajab singari o'zbek adabiyoti darg'alarining asarlarini tahlil qildi hamda asar qahramonlarining ibratli ishlari haqida to'lib-toshib gapirib berdi.

Yoshlarning dostonlardagi afsonaviy qahramonlar kechinmalarini, mumtoz adabiyot vakillari asarlaridagi inson shijoati va sabru toqatini, qardosh xalqlar adabiyoti darg'alari tasvirlangan taqdir zarbalariga mardonavor yuz tutgan zamondoshlar hayotini, jaddi bobolarimizning el savodxonligi yo'lidagi yorqin amallarini, atqoli shoiralarimizning o'tli she'riy misralarini hamda bolalar adabiyotining sara asarlaridagi satrlarni kattalardek hayotiy

misollar orqali bugungi islohotlarga bog'lab so'zlab berishi juda maroqli kechdi.

Ishirokchilarning eng kichigi 10, eng kattasi esa 29 yoshda. O'n yoshli bolalar 40-50 tagacha kitob o'qib, mushohada va tahlil qilib berdi. Bular oddiy kitoblar emas, balki jahon adabiyoti durdonalari hamda o'zbek adabiyotining sara asarlaridir. Shuningdek, ular murakkab insholar yozdi, turli tezkor savollarga javob berdi. Ko'rinib turibdiki, bu tanlov bolalar, o'smirlar va balog'at yoshidagi kitobxonlarni katta sahnalarda o'z mustaqil fikrini dadil himoya qilishga o'rgatgani, kitob ularning ongu shuurida o'ziga ishonch, dadillik va mahorat olib kirganini ko'rsatib bergani bilan g'oyat ahmiliyatlidir.

Tanlov ishtirokchilarining do'stlik hamda hamjihatlikni o'rgatgani, kitob o'qish orqali insonning ongi o'sadi, madaniyatni yuksaladi. Yoshlar kitobga muhabbatini mana shu tanlovdan topishi mumkin, deydi tanlov ishtirokchisi Rayhona Abdullimova. Yana bir ishtirokchi Charos Kamolova esa "Tanlov menga vaqtimni tejashni o'rgatdi. Vaqtimni to'g'ri boshqarishni o'rgandim. Har bir insonning o'z dunyosi bo'ladi. Ushbu tanlov tufayli dunyoqarashim kengaydi, nutqim ravonlashdi va eng muhim, mustaqil fikrlashni o'rgandim", deb fikrini bildirdi.

Onalari bilimdon mamlakatning bolalari ham bilimdon bo'ladi. "Bizga yaxshi onalarni bering, shunda biz yaxshi insonlar bo'lib yetishamiz. Chunki onalar millatning birinchi tarbiyachilardir" degan mashhur so'zlar bejiz aytilmagan. Namanganlik ishtirokchi Abdulazizning onasi Naima Yigitaliyeva farzandini bilan birga 40 ta badiiy asarni o'qib, tahlil qilib chiqqan.

Bunday tanlovlar bolalarga juda katta imkoniyatlar ehsini ochmoqda. Prezidentimizning ushbu tashabbusi xalqimizni kitobxon millatga aylantirmoqda. Kitob o'qish orqali o'g'lim Abdulaziz respublika miqyosidagi katta tanlovlarda g'olib bo'lib, yuqori natijalarga erishyapti. Ushbu tanlovda 5 yil qatnashib, beshinchi yili respublika bosqichiga yetib keldi, — deydi u. — O'lad katta farzand kitob o'qiy boshladim, unga ota-ona hamkorlik qildim, keyingi farzandlar ham unga ergashadi hamda oilada kitobxonlik muhiti shakllanadi. Bola kitob o'qishi uchun, avvalo, onaning o'zi kitob o'qishi kerak. Men o'g'lim bilan 40 ta kitobni tengma-teng, yelkama-yelka o'qib chiqdim. Ular bo'yicha savol-javob, muhokama qildik hamda bugungi hayotga bog'ladik. "Mana shu asar senga nima beryapti?" deb avval uning fikrini so'rayman. Keyin birgalashib xulosani umumlashtiramiz. Bu odat farzandimda katta

ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Chunki u endi o'z so'zini dadil aytadi, noo'rin fikrlarga ko'r-korona qo'shilmaydi. Eng asosiysi, jamiyatda o'z o'rini topa olishiga mustahkam ishonchi bor.

Bu yerda eng bilimdon, eng zo'rlar tanlandi. Chunki Prezident sovg'asi bo'lmish avtomobilni ko'lgga kiritish oson emas. Badiiy va mantiqiy fikrlash, insho yozish shartlari mavjud. Inshoni kim yaxshi yozsa oladi? Albatta, ko'p asar o'qigan bola! Bu tanlov ishtirokchilarning barcha qobiliyatini sinovdan o'tkazmoqda. Otanasi kitob o'qigan bolagina kitob o'qiydi. 10-14 yoshlihar toifasi ishtirokchisi Navbahorning ustoz, Qiziltepa tumanidagi 14-maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi Ustazoda Ostonovaning mulhazalari buxun mutafakkir Yusuf Xos Hojibning "Dunyoda ikki turli inson haqiqiy inson sanaladi: biri o'rgatuvchi, yana biri o'rganuvchi" degan hikmatidagi bir olam ma'noni eslatgandek bo'ldi.

Adolat mezonlari

Tanlov jarayonida adolat mezonlari asosiy o'rinni egallaydi. Bunday tanlovning qiyosi, muqobili boshqa mamlakatlarda yo'q. Bu tanlov mamlakatimiz rahbarining bevosita nazariida turar ekan, biz uni har jihatdan taraqqiy ettirishimiz, ishtirokchilarni har doim to'g'ri va adolatli baholab, chin ma'nodagi haqiqiy kitobxonni topib, unga Prezident sovg'asini taqdim etmoq'imiz lozim.

Muhim bir jihati borki, biz kitob o'qiyotgan bu yoshlarni tanlov mutlaqo adolatli, xolis, ochiq-oydin va shaffof holatda o'tkazilayotganiga ishonтира o'ldik. Biz uchun eng katta mukofot shudir, — deydi hakamlar hay'ati raisi, professor Bahodir Karimov. — Qayerda kitobxon yig'iladigan bo'lsa, qayerda kitob haqida fikr aytilsa va qaysi hududda kitob borasida tadbir tashkil etilib, o'sha yerda yosh kitobxonlar jamlanib, ularning yonida hakamlar paydo bo'lsa, o'sha joy mamlakatning ma'naviy markazi sanaladi. Men bugun Bekobodni ana shunday markaz deb bilaman. Chunki biz tanlovni poytaxtimizda qanday o'tkazgan bo'lsak, bu yerda ham xuddi shu darajada — yuqori sa'yiyada tashkil qilingan. Mamlakatimizning 14 hududidan kelgan bolalar Bekobodda tashkil etilgan ushbu tanlov haqidagi yorqin taassurotlarini o'zlar bilan birga olib ketadi va buni umrboq farr bilan gapirib yuradi.

Shundan so'ng O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Eshqobil Shukurga yuzlandik. — 10-14 yosh toifasidagi bolalar birinchi sinov sharti — "Badiiy asar bilimdoni" shartini bajarishi, — deydi u. — Bu shartda 300 betli kitobdan 5-6 satrli matn o'qib ehsitiriladi. Bola esa bu matn qaysi asardan olingani va uning muallifi kim ekanini aniq topishi kerak. 14 ishtirokchidan 11 nafari to'g'ri javobni topdi! Men bu tanlovda har yili qatnashaman, lekin hali bunaqa yuqori natijani ko'rmagan edim. Bu katta ko'rsatkich. 11 bola asarning va muallifning ilmiy nomini aytib, kitobni to'liq sharhlab beryapti. Eng muhimi, biz bolalarimizning dunyoqarashi va tafakkuri tobora o'sib borayotganini ko'ryapmiz.

Tanlov eksperti, "Ma'rifat" gazetasi bosh muharriri Husan Nishonov esa jarayonni bunday sharhladi: "Hozirgi yoshlarga qarab, taraqqiyot naqadar tezlashib ketganiga guvoh

bo'lyapmiz. O'g'il-qizlarimiz bolaligidanoq o'z oldiga aniq maqsad qo'yishni o'rganmoqda. Shu ma'noda, "Yosh kitobxon" tanlovi ularga o'zlar tanlagan to'g'ri yo'l sari o'ziga xos yo'llanma bermoqda. Bu tanlov yoshlarga vaqtini to'g'ri taqsimlashni, faqatgina kerakli va foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni hamda o'z kelajagini bolaligidanoq qurishni o'rgatmoqda. Ishirokchilar soni ko'payibgina qolmay, sifat darajasi ham oshib bormoqda".

Yurt iftixorlari

2017-yildan beri o'tkazib kelinayotgan mazkur tanlov ko'plab yangi nomlarni kashf etdi va kitob o'qish orqali qanday katta natijalarga erishish imkonligini butun elga ko'rsatdi. O'tgan 9 yilda yuksak bilim va qobiliyatga ega yoshlardan 26 nafari Prezident sovg'asi bo'lmish bosh mukofot — avtomashinalarni ko'lgga kiritdi.

Eng iftixorlisi shundaki, mana shu g'oliblarning o'ndan ortig'i "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali jahonning ilg'or OTMlari 100 taligiga kirgan nufuzli oliygohlarda ta'lim olmoqda.

Masalan, qoraqalpog'istonlik yosh kitobxon Shahzoda Karimboyeva va samarqandlik g'olib Mohiniso Shomurodova Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlangan bo'lsa, bilimdon yoshlardan Mahliyo O'roqova va Shohsanam Xolboyeva "Kelajak bunyodkori" medali, andijonlik g'oliba Fotimaxon Mamataliyeva esa "Shuhrat" medali bilan mukofotlandi. Bu kitobxon yoshlarning iste'dodi va zukkoligi davlatimiz tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlanayotganidan darak beradi.

Joriy yilgi respublika tanlovida 10-14 yosh toifasi g'olibi — buxorolik Farzona Nosirova, 15-19 yosh toifasi g'olibi — jizzaxlik Jasurbek Abdug'afarov, 20-30 yoshlihar toifasi g'olibi — surxondaryolik Fazilat Diyorova Prezident sovg'asi — "BYD Chazor" elektromobiliga munosib ko'rdi. Ikkinchi o'rin sohiblariga 75 million so'mdan, uchinchi o'rin sohiblariga 50 million so'mdan, qolgan barcha ishtirokchiga esa 10 million so'mdan pul mukofoti topshirildi. 10-14 yoshli ishtirokchilar orasida g'olib deb topilgan Farzona Nosirova bunday deydi: — O'zbek va qardosh xalqlarning og'zaki ijodini o'rganishga ahd qilganman. Dostonlarni, ertak va maqollarni yodlab yurardim. Onam hamda ona tili va adabiyot o'qituvchimi bilan "Kuntug'mish", "Go'ro'g'li", "Alpomish" kabi dostonlar borasida ko'p savol-javob qilganmiz. Bu mukofot zimzamga katta mas'uliyat yuklaydi. Demak, hali yanada ko'p o'qishim kerak.

15-19 yoshlihar toifasida g'olib bo'lgan jizzaxlik ishtirokchi Jasurbek Abdug'afarov Prezident sovg'asi — "BYD Chazor" elektromobilini qabul qilib olar ekan, quvonchi chig'na sig'may, faxr bilan bunday deydi: "Ushbu avtomobil ota-onamga va shoir bobomga mening sovg'am bo'ldi. Mutolaa bilan shug'ullanib, kitobga mehr qo'ygan yoshlarni shunday yuksak mukofotlayotgan davlatimiz rahbariga meng rahmat!".

20-30 yoshlihar orasida g'olib deb topilgan surxondaryolik Fazilat Diyorova esa: "Kitobga chin muhabbat, mehnatdan qochmaslik va doimo olg'a intilish oddiy bir o'qituvchining hayotiga mana shunday katta e'tiroflarni olib kirishi haqiqat ekan. Men bunga o'z hayotim misolida to'liq amin bo'ldim. Prezidentimizning tabrigidan o'zim, butun oilam, ota-onam, qaynona-qaynotam hamda o'quvchilarim behad xursand bo'ldik. Men kitobxonlikni va mutolaa bilan bundan keyin ham keng targ'ib qilaman. Chunki dunyoda kitobdek beminmat do'st yo'q", deydi.

G'oliblarning samimiy so'zlaridagi mehr va ishonchni ko'rib, xayolimdan bunday fikr o'tdi: qaysi yurtda iste'dod va iqtidor, yoshlarni tarbiyalash ishtiroqchilari darajasida yuksak e'tibor qaratilgan ekan, o'sha yurtning ertasi, albatta, oydin va porloq bo'lgay!

Zotan, buyuk alloma Jaloliddin Rumi ta'bir bilan aytganda, "Hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun uch narsa kerak: diqqat, intizom va harakat". Mana shu uch mezonni o'zi uchun shior qilib olgan g'olib kitobxonlarimizni bugun butun yurt olqishlamoqda.

Fikr kichig'irig'idan o'tgan har bir satrning xalq ko'ngliga yetib borishini ta'minlash va yurakdan chiqqan so'zning yurakkaga yetib borishiga erishish bu yo'lda fidokorona xizmat ko'rsatgan shoiri adiblarimizga cheksiz hurmat ifodasidir.

Insonning ma'naviy olamini kashf etadigan qudratli vosita bo'lmish so'z san'ati — badiiy adabiyotning aslida insonshunoslik ekan, o'sib kelayotgan barkamol avlodimizning bu ilmga oshufta bo'lib, Vatan va yurt tug'y usi yuragiga o'yib yozilgan hikmatli asarlarni mutolaa qilayotgani, qolaversa, butun mamlakatimizning ulkan kutubxonaga aylanib borayotgani biz, ziyolilarimiz ko'ngliga havas va cheksiz faxr bag'ishlaydi!

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalar tahririyati" DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-546. 30761 nusxada bosildi. Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilibiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy